

**O‘ZBEK DAVLATCHILIGINING  
SHAKLLANISHI VA TARAOQIYOTI  
BOSQICHLARI**

(O‘quv-uslubiy qo‘llanma)

— Mardiyeva G.K. —

SAMARQAND 2026

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI**

**SAMARQAND DAVLAT TIBBIYOT UNIVERSITETI**



**Mardiyeva G.K.**

**O‘ZBEK DAVLATCHILIGINING SHAKLLANISHI VA TARAQQIYOT  
BOSQICHLARI  
(O‘quv-uslubiy qo‘llanma)**

**SAMARQAND 2026**

**Tuzuvchi:**

Samarqand davlat tibbiyot universiteti “Ijtimoiy va gumanitar fanlar” kafedrası,  
**PhD Mardiyeva Guzal Karimovna**

**Taqrizchilar:**

**A.N.Maxmudova** – Samarqand davlat tibbiyot universiteti “Ijtimoiy va gumanitar fanlar” kafedrası mudiri, professor

**I.I.Rizayev** - TATU Samarqand filiali Gumanitar va ijtimoiy fanlar kafedrası dotsenti

**Annotatsiya**

*“O‘zbek davlatchiligining shakllanishi va taraqqiyot bosqichlari” nomli ushbu o‘quv-uslubiy qo‘llanmada O‘zbekistonning yaqin o‘tmishidan boshlab hozirgi kungacha bo‘lgan davrdagi davlat mustaqilligiga erishish va uni mustahkamlash jarayonida muhim o‘rin tutgan tarixiy voqealar, ijtimoiy-iqtisodiy hamda madaniy jarayonlar keng yoritilgan. Qo‘llanma nomutaxassis yo‘nalishi talabalar uchun mo‘ljallangan bo‘lib, unda tarixiy voqealar ilmiy asoslangan ma‘lumotlar, hujjatlar va jadvallar asosida izchil hamda tizimli ravishda bayon etilgan.*

*Mazkur o‘quv-uslubiy qo‘llanma nafaqat tarixiy jarayonlarni o‘rganishga, balki talabalarda mustaqil va tanqidiy fikrlash, tarixiy voqealarni tahlil qilish hamda ularga xolisona baho bera olish ko‘nikmalarini shakllantirishga ham xizmat qiladi. Qo‘llanma zamonaviy ta‘lim talablari asosida yaratilgan bo‘lib, unda talabalar bilimni mustahkamlash va nazorat qilishga qaratilgan savol, topshiriq hamda uslubiy tavsiyalar ham o‘rin olgan.*


*Ushbu o‘quv-uslubiy qo‘llanmani yaratishdan asosiy maqsad talabalarga O‘zbekistonning eng yangi tarixi bo‘yicha chuqur va tizimli bilim berish, ularda tarixiy tafakkur, milliy ong va vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirishdan iboratdir.*

“O‘zbek davlatchiligining shakllanishi va taraqqiyot bosqichlari” nomli mazkur o‘quv-uslubiy qo‘llanma Samarqand davlat tibbiyot universitetining “24” iyun 2026-yildagi №11- son bayonnomasiga asosan nomutaxassis ta‘lim yo‘nalishi talabalar uchun o‘quv-uslubiy qo‘llanma sifatida nashr etishga tavsiya etilgan.

**Ilmiy Kengash kotibi, dotsent**



**U.U.Ochilov**



## KIRISH

Mazkur o‘quv-uslubiy qo‘llanma “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” va “ Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunlarda nazarda tutilgan maqsadlar asosida ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan islohatlarga asosan tayyorlangan. Oliy ta’lim o‘quv yurtlarining nomutaxassis yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun mo‘ljallangan.

Mazkur o‘quv-uslubiy qo‘llanma o‘zbek davlatchiligining shakllanishi va taraqqiyot bosqichlarini tarixiy manbalar hamda ilmiy adabiyotlar asosida yoritishga bag‘ishlangan. Qo‘llanmada qadimgi va o‘rta asr davlatlarining boshqaruv tizimi, ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, huquqiy asoslari hamda davlat va jamiyat taraqqiyotiga ta’sir ko‘rsatgan omillar ilmiy jihatdan tahlil qilingan.

O‘zbek xalqi qadimdan boy davlatchilik an‘analari, yuksak siyosiy tafakkuri va o‘ziga xos boshqaruv tizimiga ega bo‘lgan xalqlardan biridir. Markaziy Osiyo hududida qadimgi Xorazm, Qang‘, Kushon davlati, Eftalitlar, Turk hoqonligi kabi yirik davlatlarning shakllanishi va rivojlanishi o‘zbek davlatchiligi tarixining muhim bosqichlarini tashkil etadi. Keyingi davrlarda Somoniylar, Qoraxoniylar, Xorazmshohlar, Amir Temur va temuriylar davlati hamda Buxoro, Xiva va Qo‘qon xonliklari mamlakat siyosiy, iqtisodiy va madaniy taraqqiyotida muhim o‘rin egallagan.

Ayniqsa, Amir Temur va temuriylar davri o‘zbek davlatchiligi tarixida alohida ahamiyat kasb etadi. Bu davrda markazlashgan davlat tizimi shakllanib, adolat va qonun ustuvorligiga asoslangan boshqaruv siyosati yuritildi. “Temur tuzuklari” davlatni boshqarishning muhim huquqiy va siyosiy manbasi sifatida tarixda muhim o‘rin tutadi. Temuriylar davrida ilm-fan, madaniyat, me’morchilik va savdo-sotiqning rivojlanishi Markaziy Osiyoni dunyoning yirik madaniy markazlaridan biriga aylantirdi.

Shuningdek, qo‘llanmada o‘quvchilarning tarixiy tafakkurini rivojlantirish, ularni mustaqil fikrlashga o‘rgatish, milliy davlatchilik an‘analariga hurmat ruhida tarbiyalash masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. Ushbu qo‘llanma tarix fanini o‘rganayotgan o‘quvchilar, talabalar va o‘zbek davlatchiligi tarixiga qiziquvchi keng kitobxonlar ommasini uchun mo‘ljallangan.

**MAVZU: QADIMGI VA ILK O'RTA ASRLAR DAVLATCHILIGI  
ASOSIY BOSQICHLARI VA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.  
O'ZBEK DAVLATCHILIGINING SHAKILLANISHIVA  
TARAQQIYOT BOSQICHLARI**

**« O'tmishdagi yutuqlaridan kuch olib,  
xatolaridan xulosa chiqarib yashaydigan  
xalq o'z taraqqiyot yo'lini to'g'ri belgilay oladi»**  
*Sh.M.Mirziyoyev*

**Darsning maqsadi:** O'quvchilarga o'zbek davlatchiligining qadimgi davrlardan to hozirgi kungacha bo'lgan taraqqiyot bosqichlari, davlat boshqaruvi tizimi, ijtimoiy-iqtisodiy hayoti hamda siyosiy rivojlanish jarayonlari haqida ilmiy asoslangan bilim berishdan iborat. Shuningdek, Amir Temur va temuriylar davri, Turk hoqonligi, Eftalitlar davlati hamda Buxoro, Xiva va Qo'qon xonliklarining davlat boshqaruvi va jamiyat hayotidagi o'rni tushuntirish orqali o'quvchilarda tarixiy tafakkur, milliy g'urur va davlatchilik an'analariga hurmat tuyg'usini shakllantirish maqsad qilinadi.

**Mavzuning ahamiyati:** Mazkur mavzu o'zbek xalqining ko'p asrlik davlatchilik tajribasi va siyosiy madaniyatini o'rganishda muhim ahamiyatga ega. O'zbek davlatchiligi tarixini o'rganish orqali qadimgi va o'rta asrlarda mavjud bo'lgan davlatlarning boshqaruv tizimi, ijtimoiy tuzumi, iqtisodiy taraqqiyoti hamda huquqiy asoslari haqida keng tasavvur hosil qilinadi. Ayniqsa, Amir Temur davridagi markazlashgan davlat tizimi, "Temur tuzuklari" asosidagi boshqaruv tamoyillari va Temuriylar davridagi ilm-fan hamda madaniyat rivoji milliy davlatchilik tarixining eng muhim bosqichlaridan biri hisoblanadi. Mavzu yosh avlodda milliy o'zlikni anglash, tarixiy merosni qadrlash, vatanparvarlik va mustaqil davlatni asrab-avaylash kabi fazilatlarni shakllantirishda ham katta tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi.

### **Qadimgi davr o'zbek davlatchiligi.**

Miloddan avvalgi IX–VIII asrlarda O'rta Osiyoda bronza davridan ilk temir davriga o'tish jarayoni yuz bergan. Bu davr tarixini o'rganishda yozma manbalar kam bo'lsa-da, "Avesto", ahamoniylar yozuvlari va qadimgi yunon tarixchilari asarlari muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, zardushtiylik dinining muqaddas kitobi bo'lgan Avesto O'rta Osiyoning qadimgi tarixi, ijtimoiy tuzumi, iqtisodiy hayoti va ma'naviy madaniyatini yorituvchi asosiy manba hisoblanadi.

Jahonning turli mintaqalarida ibtidoiy jamoa tuzumining asta-sekin yemirilishi natijasida insoniyat tarixida yangi bosqich — dastlabki davlat uyushmalarining shakllanish jarayoni boshlandi. Bu jarayon jamiyat taraqqiyotining muhim bosqichi bo'lib, insonlarning turmush tarzi, xo'jalik yuritish usullari va ijtimoiy munosabatlarining murakkablashuvi bilan chambarchas bog'liq edi. Ibtidoiy jamoa tuzumida odamlar urug' va qabila asosida yashagan bo'lsalar, vaqt o'tishi bilan iqtisodiy va ijtimoiy ehtiyojlarning ortib borishi yangi boshqaruv tizimlarini yuzaga keltirdi.

Dehqonchilik va chorvachilikning paydo bo'lishi insoniyat hayotida katta burilish yasadi. Odamlar tabiatning tayyor ne'matlaridan foydalanish bilan cheklanib qolmay, oziq-ovqat mahsulotlarini o'zlari yetishtira boshladilar. Ayniqsa, sug'orma dehqonchilikning rivojlanishi yirik vohalarda aholi sonining ko'payishiga va doimiy manzilgohlarning paydo bo'lishiga sabab bo'ldi. Chorvachilik esa insonlarni go'sht, sut, jun va boshqa mahsulotlar bilan ta'minlab, xo'jalikning muhim tarmog'iga aylandi. Shu bilan birga, hunarmandchilik ham taraqqiy etdi. Kulolchilik, metallga ishlov berish, to'qimachilik va zargarlik kabi sohalarning rivojlanishi mehnat taqsimotini kuchaytirib, jamiyatning iqtisodiy asoslarini mustahkamladi.

Mehnat qurollarining takomillashuvi natijasida mehnat unumdorligi oshdi. Odamlar mis, bronza va keyinchalik temirdan yasalgan qurollardan foydalanishni boshladilar. Bu esa dehqonchilik va hunarmandchilik samaradorligini oshirib, ortiqcha mahsulot paydo bo'lishiga olib keldi. Ortiqcha mahsulotning vujudga kelishi esa mulkiy tengsizlikning yuzaga kelishiga, boy va kambag'al qatlamlarning shakllanishiga sabab bo'ldi. Natijada jamiyatda tabaqalanish jarayoni kuchaydi.

Ayni paytda urug' jamoalari asta-sekin hududiy qo'shni jamoalariga aylana bordi. Endilikda odamlarni faqat qarindoshlik rishtalari emas, balki bir hududda yashash, umumiy xo'jalik yuritish va yer-suvdan birgalikda foydalanish birlashtirib turardi. Aholi sonining ortishi va xo'jalikning murakkablashuvi jamiyatni boshqarish uchun yangi tizimlarga ehtiyoj tug'dirdi.

Aholi yashaydigan yerlarni, dehqonchilik vohalarini tashqi dushmanlardan himoya qilish, ichki tartibni saqlash, jamoa a'zolari o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solish va nazorat qilish zarurati ilk davlat birlashmalarining yuzaga kelishiga asosiy sabab bo'ldi. Shu tariqa hokimiyatning markazlashuvi yuz berib, harbiy boshliqlar, qabila sardorlari va ruhoniylar jamiyatda alohida mavqega ega bo'la boshladilar. Davlat boshqaruvi tizimi shakllanib, qonun-qoidalar paydo bo'ldi.

Tarixiy manbalarga ko'ra, miloddan avvalgi IV ming yillikda Mesopotamiyada, miloddan avvalgi III ming yillik boshlarida esa Misrda dastlabki davlatlar vujudga kelgan. Mesopotamiyada Shumer shahardavlatlari, Misrda esa Nil vodiysidagi markazlashgan podsholiklar qadimgi Sharq sivilizatsiyasining yirik markazlariga

aylandi. Bu davlatlar irrigatsiya tizimlari, yozuv, soliq tizimi va qo'shin tashkiloti bilan ajralib turgan.

O'zbekiston tarixiga oid voqea va hodisalarga yangicha yondashuv natijasida Markaziy Osiyo hududida ham juda qadimdan davlat uyushmalari shakllanganligi ilmiy jihatdan asoslab berildi. Tadqiqotchilar O'zbekiston hududida dastlabki davlatlarning tashkil topish tarixi qariyb uch ming yilga borib taqalishini ta'kidlaydilar. Bu hududdagi qadimgi davlatlar Sharq sivilizatsiyasining ajralmas qismi bo'lib, ular iqtisodiy, siyosiy va madaniy jihatdan ancha rivojlangan edi.

Miloddan avvalgi I ming yillik boshlarida Markaziy Osiyoning nisbatan taraqqiy etgan viloyatlarida ilk davlat birlashmalari paydo bo'la boshladi. Qishloqlar asta-sekin kengayib, shaharlarga aylandi. Bu shaharlar esa viloyat va davlat uyushmalarining siyosiy, iqtisodiy hamda ma'muriy markazlariga aylangan. Shaharlarning rivojlanishi savdo-sotiqning kengayishi, hunarmandchilikning taraqqiy etishi va madaniy aloqalarning mustahkamlanishiga olib keldi.

## O'ZBEK DAVLATCHILIGI TARIXI

No	DAVLAT / SULOLA	DAVRI
1	 <b>Qadimgi Xorazm</b>	mil. avv. VI–IV asrlar
2	 <b>Qang' davlati</b>	mil. avv. III – mil. V asr
3	 <b>Kushon davlati</b>	I–III asrlar
4	 <b>Eftalitlar davlati</b>	V–VI asrlar
5	 <b>Turk hoqonligi</b>	VI–VIII asrlar
6	 <b>Somoniylar davlati</b>	IX–X asrlar
7	 <b>Qoraxoniylar davlati</b>	X–XII asrlar
8	 <b>Xorazmshohlar davlati</b>	XI–XIII asrlar
9	 <b>Amir Temur va Temuriylar davri</b>	XIV–XV asrlar
10	 <b>Shayboniylar davlati</b>	XVI asr
11	 <b>Ashtarxoniylar davlati</b>	XVII–XVIII asrlar
12	 <b>Buxoro amirligi</b>	XVIII–XX asr boshlari
13	 <b>Xiva xonligi</b>	XVI–XX asr boshlari
14	 <b>Qo'qon xonligi</b>	XVIII–XIX asrlar
15	 <b>Mustaqil O'zbekiston</b>	1991–yildan hozirgacha

“Avesto”dagi ma’lumotlar, qadimgi yunon tarixchilari Gerodot va Gekateyning “Katta Xorazm” haqidagi xabarlari, shuningdek Ktesiyning Qadimgi Baqtriya podsholigi to’g’risidagi ma’lumotlari Markaziy Osiyoda ilk davlat uyushmalari mavjud bo’lganligini tasdiqlaydi. Tadqiqotchilar bu davlatlarning shakllanish davrini ahamoniylargacha bo’lgan bosqich, ya’ni miloddan avvalgi IX–VII asrlar bilan bog’laydilar.

Katta Xorazm davlati tarkibiga Amudaryoning quyi oqimidagi shimoliy hududlar, Murg’ob vohasi va Parfiya yerlari kirgan. Baqtriya davlati esa hozirgi Surxondaryo viloyati, Tojikistonning Amudaryoga tutash hududlari hamda Shimoliy Afg’oniston yerlarini o’z ichiga olgan. Sug’diyona davlati Zarafshon vodiysi va Qashqadaryo vohasida joylashgan bo’lib, savdo va madaniyat markazlaridan biri hisoblangan.

Markaziy Osiyo xalqlari miloddan avvalgi VI–IV asrlarda Eron ahamoniylari hukmronligi ostida yashadilar. Ahamoniylar bu hududlarni bosib olib, ulardan soliqlar yig’gan va harbiy yurishlarda foydalanishga harakat qilganlar. Biroq mahalliy xalqlar mustaqillik uchun kurashni davom ettirdilar. Miloddan avvalgi IV asrga kelib Ahamoniylar davlatining markaziy hokimiyati zaiflashdi va ayrim hududlar mustaqillikka erishish imkoniyatiga ega bo’ldilar. Xorazm vohasi ana shunday mustaqillikka erishgan hududlardan biri edi.

Makedoniyalik Aleksandr Eroning asosiy viloyatlarini bosib olgach, miloddan avvalgi 329-yil bahorida Hindikush tog’lari orqali Markaziy Osiyo hududlariga kirib keldi. Uning asosiy maqsadi bu boy va strategik hududlarni o’z saltanati tarkibiga qo’shish edi. Biroq mahalliy xalqlar bosqinchilarga qarshi qattiq qarshilik ko’rsatdilar.

Baqtriyaliklar, sug’diyonaliklar va sak-skif qabilalari yunon-makedon bosqinchilariga qarshi uch yil davomida mardonavor kurash olib bordilar. Bu kurashga mahalliy sarkardalardan biri bo’lgan Spitamen boshchilik qildi. U xalqni ozodlik uchun kurashga safarbar etib, Iskandar qo’shinlariga katta talafot yetkazgan. Spitamenning jasorati Markaziy Osiyo xalqlarining erkinlik va mustaqillik uchun olib borgan kurashining yorqin timsoli hisoblanadi.

Shunga qaramay, miloddan avvalgi 327-yil oxirlariga kelib Sug’diyona Aleksandr tomonidan to’liq bosib olindi va qo’zg’olon bostirildi. Iskandar hududda o’z hokimiyatini mustahkamlash maqsadida yunon-makedon garnizonlarini joylashtirdi va mahalliy boshqaruv tizimini nazorat ostiga oldi.

Miloddan avvalgi IV asr oxirida Aleksandr saltanati parchalanib ketdi va uning o’rnida bir necha mustaqil davlatlar vujudga keldi. Natijada Makedoniya, Misr va Salavkiylar davlati shakllandi. Markaziy Osiyo hududlari Iskandarning eng ishonchli sarkardalaridan biri bo’lgan Salavka qo’liga o’tdi. Shu tariqa O’rta Osiyo xalqlarining miloddan avvalgi 312–250-yillardagi tarixi Salavkiylar davlati tarixi bilan chambarchas bog’lanib ketdi. Bu davrda yunon madaniyati bilan mahalliy madaniyatning o’zaro ta’siri kuchayib, ellinistik madaniyat shakllana boshladi.

Miloddan avvalgi 250-yillarga kelib Markaziy Osiyoda Salavkiylar davlatining zaiflashuvi natijasida uning tarkibidan dastlab Parfiya, keyinchalik esa Yunon-Baqtriya davlatlari ajralib chiqdi. Bu jarayon hududdagi siyosiy mustaqillik harakatlarning kuchayganligini va mahalliy hokimlarning o’z hududlarini mustaqil

boshqarishga intilganliklarini ko'rsatadi. Ayniqsa, Yunon-Baqtriya davlati Markaziy Osiyo tarixida muhim o'rin tutgan davlatlardan biri hisoblanadi.

Yunon-Baqtriya davlatining asosiy hududi Baqtriya bo'lib, ayrim hukmdorlar davrida uning hududi yanada kengaydi. Davlat tarkibiga Hindistonning shimoliy-g'arbiy qismi, Amudaryo va Sirdaryo oralig'idagi katta yerlar ham qo'shib olindi. Bu esa Yunon-Baqtriya davlatining siyosiy va harbiy jihatdan qudratli davlatga aylanganligini ko'rsatadi. Davlatning poytaxti Shimoliy Afg'onistonda joylashgan Baqtra shahri bo'lib, u qadimgi Sharqning yirik savdo, hunarmandchilik va madaniyat markazlaridan biri hisoblangan. Yunon va mahalliy sharqona madaniyatlarning uyg'unlashuvi natijasida bu hududda ellinistik madaniyat keng rivojlandi.

Biroq miloddan avvalgi II asrning uchinchi choragiga kelib Yunon-Baqtriya davlati inqirozga yuz tutdi. Sharqiy Turkiston tomondan kirib kelgan yuechji va sak qabilalarining hujumlari natijasida davlat zaiflashib, oxir-oqibat butunlay qulab tushdi. Ko'chmanchi qabilalarning bosqinlari Markaziy Osiyo hududidagi siyosiy vaziyatni keskin o'zgartirib yubordi.

Qadimgi Parfiya davlati ham bu davrning yirik davlatlaridan biri edi. U hozirgi Turkmaniston va Eronning bir qismini o'z ichiga olgan. Parfiya davlati mustaqil davlat va keyinchalik qudratli imperiya sifatida qariyb besh yuz yildan ortiq vaqt davomida yashagan. Parfiyaliklar Sharq va G'arb o'rtasidagi savdo yo'llarini nazorat qilganlari sababli iqtisodiy jihatdan katta kuchga ega bo'lganlar. Ayniqsa, Buyuk ipak yo'li orqali amalga oshirilgan savdo Parfiya davlatining taraqqiyotiga katta ta'sir ko'rsatgan.

Miloddan avvalgi II–I asrlarda Markaziy Osiyoda mavjud bo'lgan yana bir yirik davlat Parkana davlati edi. Xitoy manbalarida bu davlat Davon nomi bilan tilga olinadi. Xitoy tarixchilarining ma'lumotlariga ko'ra, miloddan avvalgi II asrda Farg'ona vodiysida taxminan 300 ming aholi yashagan. Bu esa Davon davlatining ancha rivojlangan va aholi zich joylashgan hudud ekanligini ko'rsatadi. Vohada ko'plab shaharlar mavjud bo'lib, davlatning poytaxti Ershi shahri edi. Tadqiqotchilar bu shaharni hozirgi Marhamat hududi bilan bog'laydilar.

Davon davlati qishloq xo'jaligi yuksak darajada rivojlangan mamlakat edi. Ayniqsa, sug'orma dehqonchilik taraqqiy etgan bo'lib, uzumchilik va bog'dorchilik keng rivojlangan. Farg'ona otlari esa butun Sharqda mashhur bo'lgan. Xitoy manbalarida bu otlar "samoviy tulporlar" deb ta'riflangan bo'lib, ular harbiy yurishlarda juda qadrlangan.

Miloddan avvalgi III asr boshlarida paydo bo'lgan yana bir davlat Qang' davlati edi. Dastlab uning hududi Sirdaryoning o'rta oqimidagi yerlar, ya'ni Toshkent vohasi hamda unga tutash tog' va cho'l hududlaridan iborat bo'lgan. Keyinchalik Qang' davlati o'z hududlarini kengaytirib, Amudaryo va Sirdaryo oralig'idagi yerlarni hamda Xorazm hududlarini o'ziga bo'ysundirdi.

Miloddan avvalgi II–I asrlarda va milodiy I–II asrlarda Qang' davlati iqtisodiy va madaniy jihatdan ancha rivojlangan davlatga aylandi. Davlat aholisi asosan o'troq va yarim o'troq hayot kechirgan. Shu bilan birga, uning hududida ko'chmanchi chorvador qabilalar ham yashagan. O'troq aholi daryo vodiylarida istiqomat qilib, dehqonchilik, bog'dorchilik va hunarmandchilik bilan shug'ullangan. Qang' davlati

Buyuk ipak yo'lining muhim qismida joylashgani sababli savdo-sotiq ham rivojlangan edi.

Miloddan avvalgi II–I asrlarda O'rta Osiyo hududidagi yana bir mustaqil davlat Toxariston edi. Toxarlar Yunon-Baqtriya hukmronligini tugatgach, Baqtriya hududini Toxariston deb atay boshladilar. Toxarlar qisman ko'chmanchi turmush tarzini saqlab qolgan edilar. Ularda markazlashgan yagona davlat tizimi mavjud bo'lmagan, har bir shahar va viloyatni alohida hokim boshqargan.

Xitoy manbalarida yuechji deb nomlangan qadimgi massaget qabilalari xunnlarning bosimi ostida Markaziy Osiyo tomon surib chiqarilgan. Miloddan avvalgi 140–130-yillarda ular Yunon-Baqtriya hududlariga kirib kelganlar. Yuechjilar dastlab beshta hokimlikka bo'linib yashagan bo'lsalar-da, vaqt o'tishi bilan kuchayib bordilar. Ularning bosimi natijasida Yunon-Baqtriya davlati butunlay parchalanib ketdi.

Miloddan avvalgi I asr oxiri va milodiy I asr boshlarida Baqtriya hududida yuechji qabilalari asosida Kushon davlati tashkil topdi. Bu davlatning birinchi hukmdori Kudzula Kadfiz edi. U turli qabilalarni birlashtirib, mustahkam davlat asoslarini yaratdi. Milodiy I asrga kelib Kushon davlati qadimgi dunyoning eng qudratli davlatlaridan biriga aylandi. U o'zining siyosiy qudrati jihatidan Xitoydagi Xan davlati, Parfiya podsholigi va Rim imperiyasi bilan raqobatlasha oladigan darajaga yetdi. Kushon davlati Sharq va G'arb o'rtasidagi savdo yo'llarini nazorat qilganligi sababli xalqaro savdoda muhim o'rin egallagan.

Kudzula Kadfizdan keyin uning o'g'li Vima Kadfiz hukmronlik qildi. Uning davrida mamlakatda pul islohoti o'tkazilib, oltin tangalar zarb qilina boshlandi. Bu esa davlat iqtisodiyotining rivojlanganligini va savdo munosabatlarining kengayganligini ko'rsatadi. Kushon hukmdorlari ichida eng mashhuri Kanishka hisoblanadi. Uning hukmronligi davrida Kushon saltanati yanada ravnaq topdi. Davlatning poytaxti Peshovar shahri atrofida joylashgan edi. Mamlakat hududi Shimoliy Hindiston, Afg'oniston, Markaziy Osiyoning ko'plab viloyatlari hamda Sharqiy Turkiston yerlarini o'z ichiga olgan.

Kanishka davrida buddaviylik dini keng tarqaldi va davlat dini sifatida qo'llab-quvvatlandi. Shu sababli Kushon davlati buddaviylik madaniyatining yirik markazlaridan biriga aylandi. San'at, haykaltaroshlik va me'morchilik yuksak taraqqiy etdi. Ayniqsa, Gandxara san'ati yunon va sharq madaniyatlarining uyg'unlashuvi natijasida shakllangan muhim madaniy hodisa hisoblanadi.

Kanishkadan keyin Vasishka davrida Kushon davlati asta-sekin inqirozga yuz tuta boshladi. Ichki nizolar, tashqi bosqinlar va markaziy hokimiyatning zaiflashuvi davlat qudratining susayishiga olib keldi. Kushonlar davrida Markaziy Osiyoning deyarli barcha viloyatlarida qishloq xo'jaligi yuqori darajada rivojlangan edi. Sug'orma dehqonchilik, bog'dorchilik va chorvachilik asosiy xo'jalik tarmoqlaridan biri bo'lib qolgan. Hunarmandchilik ham faqat yirik shaharlarda emas, balki kichik manzilgohlarda ham taraqqiy etdi. Kulolchilik, temirchilik, zargarlik va to'qimachilik mahsulotlari nafaqat ichki bozorlarda, balki boshqa mamlakatlarga ham chiqarilgan.

Kushonlar davrida ichki va tashqi savdo ayniqsa rivojlandi. Buyuk ipak yo'li orqali Xitoy, Hindiston, Eron va Rim imperiyasi bilan savdo aloqalari olib borildi.

Natijada Markaziy Osiyo qadimgi dunyoning eng muhim iqtisodiy va madaniy markazlaridan biriga aylandi.

### **Ilk oʻrta asrlarda oʻzbek davlatchiligi.**

IV asrga kelib Oʻrta Osiyoda uzoq vaqt hukmronlik qilgan Kushon podsholigi asta-sekin zaiflashib, siyosiy maydondan chiqib ketdi. Kushon davlatining parchalanishi natijasida hududda turli qabilaviy birlashmalar va mahalliy hukmdorlar kuchaya boshladi. Ayniqsa, xioniylar va kidariylar kabi koʻchmanchi qabilalar Oʻrta Osiyoning siyosiy hayotida muhim rol oʻynay boshladilar. Bu davr Markaziy Osiyo tarixida siyosiy beqarorlik va yangi davlat tuzilmalarining shakllanish bosqichi sifatida xarakterlanadi.

V asr oʻrtalariga kelib esa Oʻrta Osiyo hududida yangi va qudratli davlat — Eftaliylar podsholigi shakllanish jarayonini yakunladi. Tarixiy manbalarda eftaliylar “oq xunlar” deb ham tilga olinadi. Tadqiqotchilarning fikricha, ular massaget qabilalarining avlodlari boʻlib, Markaziy Osiyo hududida katta siyosiy kuchga aylanganlar. Manbalarda qayd etilishicha, 457-yildan boshlab eftaliylar hukmdori Vaxshunvor Chagʻoniyon, Toxariston va Badaxshon hududlarini oʻziga boʻysundirgan. Natijada Eftaliylar davlati qisqa vaqt ichida juda katta hududni egallagan yirik imperiyaga aylandi.

Eftaliylar Kushonlar davlatining siyosiy anʼanalarini davom ettirdilar. Ular Oʻrta Osiyo, Sharqiy Eronning bir qismi, Shimoliy Hindiston va Sharqiy Turkiston hududlaridagi koʻplab xalqlarni yagona davlat tarkibiga birlashtirishga muvaffaq boʻldilar. Bu davlat iqtisodiy va harbiy jihatdan kuchli boʻlib, Buyuk ipak yoʻlining muhim qismlarini nazorat qilgan.

V–VI asrlarda Oʻrta Osiyo tarixida muhim iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlar yuz berdi. Bu davrda dehqonchilik vohalarida Eftaliylarning asta-sekin oʻtroqlashuvi kuchaydi. Natijada sugʻorma dehqonchilikka boʻlgan ehtiyoj tobora ortib bordi va bu holat yangi yerlarni oʻzlashtirish jarayonini tezlashtirdi. Aholi suv resurslaridan samarali foydalanish uchun kichik-kichik sugʻorish kanallarini qazib chiqara boshladi, minglab gektar unumdor yerlar dehqonchilik uchun oʻzlashtirildi.

Sugʻorish tizimining rivojlanishi bilan birga, mavjud irrigatsiya tarmoqlari ham takomillashdi. Shohariqlar chuqurlashtirilib, keng va sersuv kanallarga aylantirildi. Bu davrda qurilgan yirik sugʻorish inshootlarining ayrimlari bugungi kungacha saqlanib qolgan. Jumladan, Zahariq kanali, Boʻzsuv kanali va Dargʻom kanali V asrda barpo etilgan eng yirik sugʻorish tarmoqlaridan hisoblanadi. Bu inshootlar vohalarda dehqonchilikni yanada rivojlantirishga xizmat qilgan va aholining yashash sharoitini yaxshilagan.

Togʻ oldi hududlarida suv chiqarish uchun maxsus suv chiqarish moslamalaridan ham keng foydalanilgan. Bu esa sugʻoriladigan yer maydonlarining kengayishiga olib kelgan. Yangi oʻzlashtirilgan hududlarda esa zodagon dehqonlar — yer egalari tomonidan katta qoʻrgʻonlar qurilgan. Ular qalin xom gʻishtdan, baland poydevor ustiga barpo etilib, mustahkam istehkom koʻrinishiga ega boʻlgan. Bu qoʻrgʻonlar nafaqat yashash joyi, balki iqtisodiy va siyosiy markaz vazifasini ham bajargan.

Eftaliylar jamiyatida ham ijtimoiy tarkib murakkab edi. Ularning bir qismi ko'chmanchi chorvachilik bilan shug'ullangan bo'lsa, asosiy qismi o'troq hayot kechirib, shahar va qishloqlarda istiqomat qilgan. Ayniqsa, Toxariston va So'g'diyona hududlarida dehqonchilik va bog'dorchilik yuqori darajada rivojlangan edi. Qashqadaryo va Zarafshon vodiylarida g'alla ekinlari bilan birga sholi yetishtirish ham keng tarqalgan.

Xitoy manbalariga ko'ra, V–VI asrlarda Sharqiy Turkiston va Markaziy Osiyo hududlarida g'o'za ekinlari keng tarqalgan edi. O'rta Osiyo paxta tolasi qadimdan Xitoyda ham mashhur bo'lgan va yuqori sifatli mahsulot sifatida qadrlangan. Bu esa hududning qadimgi davrlardan oq xalqaro savdo aloqalarida muhim o'rin tutganini ko'rsatadi. Tog' va tog' oldi hududlarida yashovchi aholi asosan yilqichilik bilan shug'ullangan. Ayniqsa, Farg'ona vodiysida zotdor otlar — arg'umoqlar yetishtirilgan bo'lib, ular Sharq mamlakatlarida juda mashhur bo'lgan. Bu otlar harbiy yurishlar va savdo aloqalarida katta ahamiyatga ega bo'lgan.

Yer egaligi munosabatlarining shakllanishi natijasida sug'oriladigan yerlarning bir qismi asta-sekin mulkdor zodagonlar — dehqonlar qo'lida to'plana boshladi. Bu jarayon jamiyatda ijtimoiy tabaqalanishni kuchaytirdi. Erkin dehqonlar asta-sekin yirik yer egalari qaram bo'lib qoldilar va “kadivar” deb ataluvchi tobe dehqonlar qatlamiga aylana bordilar. Shu bilan birga, sug'oriladigan yerlarning ma'lum qismi ibodatxonalar mulki hisoblangan. Bunday yerlar “vag'nze” deb yuritilib, diniy muassasalar iqtisodiy asosini tashkil etgan. Yaylovlarning asosiy qismi esa oqsoqol va zodagonlar qo'lida bo'lgan.

Eftaliylar jamiyatida mol-mulk tengsizligi ham kuchli edi. Boy va kambag'al qatlamlar o'rtasidagi farq tobora ortib bordi. Shu bilan birga, yangi feodal munosabatlar shakllanayotgan bo'lsa-da, ibtidoiy jamoa tuzumiga xos ayrim an'analar ham saqlanib qolgan edi. Bu esa V–VI asrlar O'rta Osiyo tarixini o'tish davri sifatida xarakterlash imkonini beradi — ya'ni eski jamoa tizimi asta-sekin yemirilib, yangi ijtimoiy-iqtisodiy tuzum shakllanayotgan davr edi.

Eftaliylar davlati Markaziy Osiyo xalqlari tarixida muhim o'rin tutadi. Ularning hukmronligi davrida savdo-sotiq, hunarmandchilik va madaniy aloqalar rivojlandi. Biroq VI asrning ikkinchi yarmiga kelib Eftaliylar davlati zaiflasha boshladi. 563–567-yillarda turklar va sasoniylar tomonidan olib borilgan harbiy yurishlar natijasida eftaliylar mag'lubiyatga uchradilar. Shu tariqa tarix maydoniga yangi siyosiy kuch — Turk xoqonligi kirib keldi.

Turk xoqonligi tarkibiga Sharqiy Turkiston, Shimoliy Hindiston va Kaspiy dengizigacha cho'zilgan O'rta Osiyo hududlari kirgan edi. Turk xoqonligi qisqa vaqt ichida ulkan hududlarni egallab, Markaziy Osiyodagi eng yirik davlatlardan biriga aylandi. Davlatning siyosiy tuzilishi harbiy boshqaruvga asoslangan bo'lib, turk qabilalari yagona hokimiyat ostida birlashtirilgan edi.

588-yilda Eron sasoniylari davlati bilan Turk xoqonligi qo'shinlari o'rtasida katta jang bo'lib o'tdi. Bu jangda turklar mag'lubiyatga uchradilar. Shundan so'ng Turk xoqonligi ichki nizolar va hududiy qarama-qarshiliklar natijasida Sharqiy va G'arbiy Turk xoqonligiga bo'linib ketdi. Bu bo'linish davlatning siyosiy qudratini zaiflashtirdi.

VI–VII asrlarda Turk hoqonligi qo‘l ostida Markaziy Osiyo hududidagi turli xalqlar va qabilalar birlashgan bo‘lib, ularning iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyot darajasi bir xil emas edi. Bu hududda yashagan aholi o‘troq dehqonchilik, ko‘chmanchi chorvachilik hamda shahar hayoti bilan bog‘liq hunarmandchilik va savdo-sotiq kabi turli xo‘jalik shakllarida faoliyat yuritgan. Natijada Turk hoqonligi tarkibida murakkab, ko‘p qatlamli jamiyat shakllangan.

Aholining ko‘chmanchi qismi asosan o‘tovlarda yashab, to‘rt g‘ildirakli aravalarda ko‘chib yurgan. O‘troq aholi esa shahar va qishloqlarda istiqomat qilib, dehqonchilik, hunarmandchilik va savdo bilan shug‘ullangan. Jamiyatda mehnatkash xalq “Budun” yoki “Qora budun” deb atalgan bo‘lib, bu qatlam asosan oddiy aholini ifodalagan. Urug‘ va qabila zodagonlari esa “beklar” nomi bilan yuritilgan va ular siyosiy hamda harbiy hayotda muhim o‘rin egallagan. VII asrga kelib, doimiy harbiy to‘qnashuvlar va ichki nizolar iqtisodiy hayotga salbiy ta‘sir ko‘rsata boshladi. Natijada markaziy hokimiyat asta-sekin zaiflashdi, siyosiy beqarorlik kuchaydi va iqtisodiy tanglik yuzaga keldi. Bu jarayon shaharlarning inqiroziga olib keldi: ularning maydoni qisqarib bordi, ko‘plab aholi shahar tashqarisiga chiqib ketdi. Shu bilan birga, katta oilalarga tegishli qo‘rg‘on-qal‘alar soni ko‘paydi va ular muhim iqtisodiy markazlarga aylandi.

Xorazm va So‘g‘diyona hududlarida bunday qo‘rg‘onlar atrofida dehqonchilik mavzolari shakllanib, boy dehqonlar va savdogarlarning mustahkam qarorgohlari paydo bo‘lgan. So‘g‘d jamiyati ayniqsa rivojlangan bo‘lib, unda savdogarlar, hunarmandlar, dehqonlar, chorvadorlar va diniy qatlam vakillari birgalikda yashagan.

Ijtimoiy tuzumda dehqonlar alohida ustun mavqega ega bo‘lgan. Ular katta yer-mulk egasi bo‘lib, jamiyatning boy va nufuzli qatlamini tashkil etgan. Dehqonlarga qaram bo‘lgan “kashavarz” yoki “kishtkorlar” yerlarni ijaraga olib, hosilning ma‘lum qismini to‘lab ishlaganlar. Bundan tashqari, “akor” va “chorikor”lar yerda yollanma mehnat qilib kun kechirgan. Jamiyatda dindorlar ham katta ta‘sir kuchiga ega edi. Ular diniy marosimlarni boshqarish, ibodatxonalarni yuritish va aholining ma‘naviy hayotiga rahbarlik qilish bilan shug‘ullangan. Ibodatxona xo‘jaliklari “vag‘nze” deb atalib, iqtisodiy jihatdan ham muhim o‘rin tutgan.

Shu tariqa Turk hoqonligi davridagi ijtimoiy tuzumni boy zodagonlar, savdogarlar, harbiylar, amaldorlar, dindorlar, chorvadorlar, dehqonlar va qaram qatlamlar tashkil etgan. Bu jamiyatni shartli ravishda hukmdorlar, erkin aholi, yarim erkin va qaram tabaqalarga ajratish mumkin. Turk hoqonligi boshqaruv shakliga ko‘ra ilk yakka hokimlikka asoslangan davlat edi. Uning boshida oliy hukmdor — hoqon turgan bo‘lib, bu lavozim merosiy hisoblangan. Biroq taxt merosi har doim ham bevosita o‘g‘ilga o‘tmagan; ba‘zan katta qarindoshlar yoki “ulus oqsoqollari” qarori bilan ham belgilangan.

Xitoy manbalariga ko‘ra, yangi hoqonni taxtga o‘tqazish marosimi maxsus tartibda o‘tkazilgan. Bo‘lajak hukmdor kigizga o‘tqazilib, quyosh yo‘nalishida to‘qqiz marta aylantirilgan, so‘ng otga mindirilib, bo‘yniga ipak mato bog‘langan. Undan hukmronlik muddati so‘ralgan va belgilangan muddat tugagach, u taxtdan ketgan. Hoqondan keyingi eng yuqori mansab “yabg‘u” bo‘lib, u davlatning birinchi vaziri va harbiy boshliqlaridan biri hisoblangan. Masalan, Istami yabg‘u mashhur

yabg'ulardan biri bo'lgan. Biroq yabg'u taxtga merosxo'r bo'la olmagan. Taxt vorisi "tegin" (shahzoda) deb atalgan. Joylardagi hokimlarni nazorat qilish uchun "tudun" lavozimi joriy etilgan bo'lib, ular soliqlar, boj va mahalliy boshqaruv ishlarini kuzatib borgan. Markaziy boshqaruv asosan yirik davlat masalalari — tashqi siyosat, harbiy yurishlar, soliq tizimi va diplomatik aloqalar bilan shug'ullangan, mahalliy hududlarga esa ma'lum darajada erkinlik berilgan.

Natijada Turk hoqonligi tarkibida Farg'ona, So'g'd, Shosh, Tohariston, Xorazm kabi hududlarda yarim mustaqil mahalliy sulolalar faoliyat yuritgan. Ularning barchasi hoqonlikka bo'ysungan bo'lsa-da, ichki boshqaruvni o'zlari amalga oshirgan. Harbiy tizim asosan otliq qo'shinlarga tayangan bo'lib, turli o'lkalardan yig'ilgan askarlar va shaxsiy qo'riqchilar armiyani tashkil etgan. O'lkalardan esa hoqonlikka muntazam o'lpon to'lab turish talab qilingan. Shu tariqa Turk hoqonligi davri Markaziy Osiyo tarixida murakkab siyosiy tizim, ko'p qatlamli jamiyat va iqtisodiy o'zgarishlar bilan ajralib turgan muhim bosqich bo'lib qolgan.

VII asr o'rtalariga kelib Arabiston yarimorolida yangi va qudratli davlat — Arab xalifaligi tashkil topdi. Arab xalifaligi qisqa vaqt ichida juda katta hududlarni egallab, Yaqin Sharq va Markaziy Osiyo tomon yurish boshladi. VIII asr boshlarida arab qo'shinlari butun Movarounnahr hududini bosib oldilar. Arab istilosi bilan birga bu hududga islom dini ham kirib keldi. Islom dini Markaziy Osiyo xalqlarining siyosiy, madaniy va ma'naviy hayotiga katta ta'sir ko'rsatdi. Arablar dastlab mahalliy aholining qarshiligiga duch kelgan bo'lsalar-da, vaqt o'tishi bilan islom dini keng yoyildi va asosiy dinlardan biriga aylandi. Shu bilan birga, arab yozuvi, ilm-fan va madaniyat ham hududga kirib keldi.

VIII asr oxiri va IX asr boshlariga kelib Arab xalifaligi chuqur siyosiy inqirozga uchradi. Markaziy hokimiyatning zaiflashuvi natijasida xalifalik tarkibidagi ko'plab hududlarda mustaqillikka intilish kuchaydi. Markaziy Osiyoda yuzaga kelgan siyosiy vaziyat xalifalikni sharqiy viloyatlarni boshqarishni mahalliy sulolalarga topshirishga majbur qildi. Dastlab Tohiriylar sulolasi, keyinchalik esa Somoniylar davlati Movarounnahr va Xurosonni boshqarishga kirishdilar. Ular rasmiy jihatdan xalifalikka bo'ysunsalar-da, amalda mustaqil siyosat yurita boshladilar.

Somoniylar davlat boshqaruvida mahalliy davlatchilik an'alariga tayandilar. Ular dehqonchilik, hunarmandchilik va savdoni rivojlantirishga katta e'tibor berdilar. Soliq tizimi tartibga solinib, davlat boshqaruvida shariat qonunlariga amal qilish muhim vazifa sifatida belgilandi. Somoniylar davrida Movarounnahr iqtisodiy va madaniy jihatdan yuksalish davrini boshdan kechirdi.

Ismoil Somoniy hukmronligi davrida davlat tizimini mustahkamlashga qaratilgan muhim islohotlar amalga oshirildi. Natijada qadimgi sharq davlatchilik an'alariga asoslangan markazlashgan boshqaruv tizimi yaratildi. Ismoil Somoniy kuchli qo'shin tuzib, davlatning ichki va tashqi xavfsizligini mustahkamladi. Tarixchi Narshaxiy ma'lumotlariga ko'ra, Somoniylar davlatining markaziy boshqaruvi o'nta devondan iborat bo'lgan. Har bir devon ma'lum bir davlat ishini boshqargan. Bu tizim davlat boshqaruvining ancha rivojlanganligini ko'rsatadi. X asr oxirlariga kelib Somoniylar davlati zaiflashib qulab tushdi. Natijada Movarounnahrda hokimiyat Qoraxoniylar davlati qo'lga o'tdi. Qoraxoniylar davlatni el-yurt va viloyatlarga bo'lib boshqarganlar.

Qoraxoniylar davlatining boshlig'i "tamg'achxon", ya'ni "xonlar xoni" yoki "ulug' xon" deb atalgan. Bu davrda yer egaligining iqto tizimi keng rivojlandi. Iqto tizimiga ko'ra, harbiylar va amaldorlarga ma'lum hududlardan soliq yig'ish huquqi berilgan. XII asrning ikkinchi yarmiga kelib Qoraxoniylar davlati inqirozga yuz tutdi. Uning o'rnida harbiy turk sarkardalari tomonidan boshqariladigan mayda feodal mulklar paydo bo'ldi. Bu esa Movarounnahrda siyosiy parokandalikni kuchaytirdi.

Shu davrda O'rta Osiyoning janubi-g'arbida joylashgan qudratli Saljuqiylar davlati ham zaiflasha boshladi. Yuzaga kelgan siyosiy vaziyatdan foydalangan holda Xorazmshohlar davlati kuchayib bordi. Qutbiddin Muhammad XI asr oxirida "Xorazmshoh" unvonini qayta tiklagan edi. 1127–1156-yillarda hukmronlik qilgan Otsiz davrida Xorazm kuchli davlatga aylandi. Uning vorislari Ilarslon va Alauddin Takash davrida davlat hududi yanada kengaydi va Xorazm Sharqdagi eng qudratli davlatlardan biriga aylandi. Muhammad Xorazmshoh hukmronligi davrida esa Xorazm davlatiga butun Movarounnahr hududi qo'shib olindi. Natijada Xorazmshohlar davlati Yaqin va O'rta Sharqdagi eng yirik davlatlardan biriga aylandi. Bu davlatning iqtisodiy qudrati savdo yo'llarini nazorat qilishi, rivojlangan dehqonchilik va hunarmandchilik bilan chambarchas bog'liq edi.

### **Amir Temur va Temuriylar davlatchiligi.**

XIV asr o'rtalarida Movarounnahr tarixida buyuk davlat arbobi va mohir sarkarda sifatida Amir Temur tarix sahnasiga kirib keldi. U barlos urug'ining beklaridan biri bo'lgan Tarag'ay Bahodirning o'g'li edi. Bu davrda Movarounnahr hududi siyosiy jihatdan parokanda holatda bo'lib, mo'g'ullar bosqinidan keyingi ichki nizolar, feodal tarqoqlik va o'zaro urushlar mamlakatni zaiflashtirib qo'ygan edi. Ana shunday murakkab vaziyatda Amir Temur yurtni birlashtirish, markazlashgan davlat barpo etish va mamlakatni tashqi bosqinchilardan ozod qilish yo'lida kurash boshladi.

Dastlab Amir Temur nufuzli turk amiri Amir Husayn bilan ittifoq tuzdi. Amir Husayn Qazag'onning nabirasi va Samarqand hukmdori edi. Ular birgalikda Movarounnahrni mo'g'ullar zulmidan ozod qilish hamda mamlakatda markaziy hokimiyatni tiklash uchun harakat qildilar. Biroq vaqt o'tishi bilan ikki hukmdor o'rtasidagi siyosiy manfaatlar to'qnashuvi sababli munosabatlar keskinlashdi. Natijada 1370-yilda Amir Temur Amir Husayn qo'shinlarini tor-mor etib, Movarounnahrning yagona hukmdori sifatida e'lon qilindi. Shu tariqa Temuriylar davlatiga asos solindi.

Amir Temur hokimiyatni qo'lga kiritgach, avvalo mamlakat ichkarisida mustahkam tartib o'rnatishga va hududlarni birlashtirishga kirishdi. 1372–1388-yillar davomida u Xorazmga besh marta harbiy yurish uyushtirdi. Bu yurishlar natijasida Xorazm Movarounnahrqa to'liq bo'ysundirildi. Xorazmning qo'shib olinishi davlatning iqtisodiy va strategik qudratini yanada oshirdi. Shundan so'ng Amir Temur o'zining keng ko'lamlari harbiy yurishlarini boshladi. U Eron, Iroq, Kavkaz, Suriya va Turkiya hududlariga yurishlar uyushtirdi. Bu harbiy yurishlar natijasida ulkan imperiya barpo etildi. Temur davlati sharqda Hindiston chegaralaridan g'arbda Kichik Osiyogacha, shimolda Dashti Qipchoqdan janubda Fors qo'ltig'igacha cho'zilgan yirik saltanatga aylandi.

Biroq Temur davlatining qudratiga Juchi ulusi tarkibidagi Oltin O‘rda va Oq O‘rda davlatlari doimiy xavf solib turardi. Ayniqsa, To‘xtamish bilan bo‘lgan munosabatlar murakkab tus oldi. Dastlab Amir Temur 1379-yilda To‘xtamishning Oq O‘rda taxtiga chiqishiga yordam berdi. Keyinchalik To‘xtamish Mamay ustidan g‘alaba qozonib, Oltin O‘rdada oliy hokimiyatni egalladi. Ammo hokimiyatni mustahkamlab olgach, u Temur tasarrufidagi yerlarga hujum qila boshladi. Bunga javoban Amir Temur To‘xtamishga qarshi bir necha yirik harbiy yurishlar uyushtirdi. 1391-yilda Qunduzcha jangida va 1395-yilda Shimoliy Kavkazdagi Terek daryosi bo‘yida To‘xtamish qo‘shinlari qaqqshatqich mag‘lubiyatga uchratildi. Bu mag‘lubiyatlardan keyin Oltin O‘rda nihoyatda zaiflashdi. Natijada Amir Temur uchun Volgabo‘yi hududlariga va Oltin O‘rdaning poytaxti Saroy Berka shahriga yo‘l ochildi. Shahar egallandi va Oltin O‘rda siyosiy jihatdan inqirozga yuz tutdi.

1398–1399-yillarda Amir Temur Hindistonga mashhur yurishini amalga oshirdi. Bu yurish natijasida Dehli sultonligi mag‘lubiyatga uchratildi va Temur qo‘shinlari katta boylik hamda o‘lja bilan Movarounnahrqa qaytdilar. Hind yurishi Temur davlatining iqtisodiy qudratini yanada mustahkamladi. 1400-yilda Amir Temur Boyazid I va Misr sultoni Farajga qarshi harbiy harakatlarni boshladi. 1402-yilda Anqara yaqinida bo‘lib o‘tgan mashhur jangda usmonli turklar sultoni Boyazid I ustidan hal qiluvchi g‘alaba qozonildi. Bu jang jahon tarixida katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Chunki usmonli turklarning Yevropaga yurishi vaqtincha to‘xtatildi va Istanbulning usmonlilar tomonidan egallanishi qariyb 50 yilga kechikdi.

1404-yil boshida Amir Temur o‘zining 200 ming kishilik qo‘shini bilan Xitoyga yurish qilishga tayyorgarlik ko‘ra boshladi. Biroq bu yurish amalga oshmadi. 1405-yil 18-fevralda O‘tror shahrida Amir Temur vafot etdi. Uning vafoti bilan Xitoy yurishi bekor qilindi. Amir Temur jasi Samarqandga olib kelinib, Go‘ri Amir maqbarasiga dafn etildi.

Amir Temur hukmronligi davrida Movarounnahr ulkan imperiyaning siyosiy, iqtisodiy va madaniy markaziga aylandi. Bu davrda iqtisodiyot, hunarmandchilik, savdo va madaniyat yuksak taraqqiy etdi. XIV–XV asrlar Temuriylar uyg‘onish davri sifatida tarixga kirgan bo‘lib, ko‘pincha Markaziy Osiyo tarixining “oltin asri” deb ataladi. Bu davrda ilm-fan va madaniyat rivojiga katta e‘tibor qaratildi. Samarqand va Hirot kabi shaharlar Sharqning yirik ilmiy va madaniy markazlariga aylandi. Bu zamonda jahonga mashhur olimlar, shoirlar, rassomlar va me‘morlar yetishib chiqdi. Keyinchalik Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiy va Kamoliddin Behzod kabi buyuk siymolar aynan Temuriylar davrida yashab ijod qildilar.

Tarixchi Isfaxoniy o‘zining “Buxorolik mehmon kitobi” asarida Samarqandda paxtachilikning rivojlanganligi, paxta tolasi va shoyi matolar ishlab chiqarilishi haqida yozib qoldirgan. Bu esa Temuriylar davrida hunarmandchilik va yengil sanoat yuqori darajada rivojlanganligini ko‘rsatadi.

Amir Temur savdo-sotiqni davlat taraqqiyotining asosiy omillaridan biri deb bilgan. U “Dunyo savdogarlar bilan obod bo‘ladi” degan fikrga amal qilgan holda yangi yo‘llar, ko‘priklar, karvonsaroylar va savdo inshootlari qurilishiga katta mablag‘ sarflagan. Natijada Buyuk ipak yo‘li orqali xalqaro savdo yanada rivojlandi. Aynan Temur davrida Yaqin va O‘rta Sharq davlatlari bilan bir qatorda Yevropaning Ispaniya, Fransiya va Angliya kabi davlatlari bilan ham siyosiy va iqtisodiy aloqalar

kengaydi. Temur saroyiga ko'plab xorijiy elchilar tashrif buyurgan, bu esa Temur davlatining xalqaro maydondagi nufuzini yanada oshirgan.

Amir Temur va Temuriylar davri davlatchilik siyosati hamda boshqaruv tizimini o'rganish O'zbekiston davlatchiligi tarixini anglashda nihoyatda muhim ahamiyatga ega. Chunki bu davr nafaqat harbiy yurishlar va ulkan imperiya barpo etilishi bilan, balki davlat boshqaruvi, siyosiy tafakkur, iqtisodiy taraqqiyot va madaniy yuksalishning yangi bosqichi bilan ham ajralib turadi. Davlat va davlatchilik mohiyatida, eng avvalo, muayyan hudud va jamiyatdagi mavjud imkoniyatlarni xalq manfaatlari yo'lida safarbar eta oladigan kuchli tashkilotchilik yotadi. Shu sababli Amir Temur faoliyatini faqat sarkardalik yoki istilochilik bilan emas, balki davlatchilik asoslarini tiklagan va rivojlantirgan buyuk siyosiy arbob sifatida baholash lozim. Amir Temurning buyukligi shundaki, u o'zidan oldingi davlatchilik tajribalarini chuqur anglab, ularni zamon talablariga mos ravishda rivojlantira oldi. Davlat arbobi va siyosatchining salohiyati, eng avvalo, uning davlatchilik asoslarini qanchalik teran tushunishi va amalda qo'llay bilishi bilan belgilanadi. Sohirqiron aynan shu jihati bilan tarixda alohida o'rin egallaydi.

Amir Temur davrigacha shakllanib, zamon sinovidan o'tgan o'zbek davlatchiligining asosiy tamoyillari mavjud edi. Ularning birinchisi — davlat siyosiy jihatdan mustaqil bo'lishi zarurligi edi. Chunki mustaqillik bo'lmasa, davlat o'z vazifalarini to'laqonli bajara olmaydi. Ikkinchi tamoyil davlat va jamiyat yaxlitligini saqlashdan iborat bo'lib, ichki parokandalikning oldini olishni ko'zda tutgan. Uchinchi tamoyil davlat va jamiyatning qonunlar hamda tartiblar asosida boshqarilishi zarurligini ta'kidlagan. To'rtinchi asos esa boshqaruv tizimining muvofiqlashtirilgan holda faoliyat yuritishini talab qilgan. Beshinchi asos iqtisodiy va ijtimoiy munosabatlarning davlat nazoratida bo'lishini ko'zda tutgan. Oltinchi tamoyil fan va madaniyat ravnaqiga davlat darajasida e'tibor berishni talab etgan. Yettinchi asos davlat tashqi siyosatda ham faol bo'lishi, xalqaro vaziyatdan mamlakat manfaatlari yo'lida foydalana olishini nazarda tutgan. Sakkizinchi tamoyil esa davlat rahbarining yuksak ma'naviyatli, tafakkuri teran, millatparvar va uzoqni ko'ra biladigan shaxs bo'lishi zarurligini ta'kidlagan. Amir Temur ana shu sakkiz asosni amalda ro'yobga chiqardi. U mo'g'ullar hukmronligidan keyin davlatning siyosiy mustaqilligini tikladi, markazlashgan boshqaruv tizimini yaratdi, iqtisodiy taraqqiyot uchun qulay sharoitlar vujudga keltirdi va fan hamda madaniyat rivojiga katta e'tibor qaratdi. Shu bilan birga, Amir Temur davlatchilik asoslarini yana bir muhim tamoyil bilan boyitdi. Bu — jamiyatdagi barcha ijtimoiy tabaqalar manfaatlarini hisobga olish va ularning davlat taraqqiyotidagi rolini e'tiborga olish tamoyili edi. Amir Temur jamiyatni 12 tabaqaga ajratgan va ularning har birining manfaatlarini muvofiqlashtirishga harakat qilgan. Bu esa davlat boshqaruvida ijtimoiy muvozanatni saqlashga xizmat qilgan.

Amir Temur davlat boshqaruvida markazlashuv tamoyiliga alohida ahamiyat berdi. Uning davrida boshqaruv tizimi ikki asosiy idoraga — dargoh va devonlarga bo'lingan edi. Dargoh eng oliy davlat idorasi bo'lib, davlatning boshqaruv markazi hisoblangan. Devonlar esa bugungi vazirliklar vazifasini bajargan. Temur hokimiyat tepasiga kelgan paytda siyosiy vaziyat juda murakkab edi. Chingiziylar hukmronligi davrida shakllangan siyosiy an'analar hali ham kuchli ta'sirga ega edi. O'sha davr

taomiliga ko'ra oliy hokimiyat faqat chingiziylarga tegishli bo'lishi kerak deb hisoblangan. Shu sababli Amir Temur rasman xon unvonini qabul qilmadi. 1370-yilda u Suyurg'atmishni rasmiy xon deb e'lon qildi. Asl hokimiyat esa Sohirqiron qo'lida bo'ldi. Bu siyosiy jihatdan nihoyatda oqilona qaror edi. Chunki bu orqali Amir Temur bir tomondan mavjud siyosiy an'analarni saqlab qoldi, ikkinchi tomondan esa o'z hokimiyatini mustahkamlashga erishdi.

Amir Temurning Saroy Mulkxonimga uylanishi ham uning siyosiy mavqeini mustahkamlashga xizmat qilgan. Saroy Mulkxonim chingiziylar avlodidan bo'lgani sababli Amir Temur "Ko'ragon", ya'ni "xonning kuyovi" unvonini oldi. Bu esa uning hukmronligini siyosiy jihatdan qonuniylashtirishga yordam berdi. Amir Temur davlat boshqaruvida qadimgi o'zbek davlatchiligi an'alarini qayta tiklashga muvaffaq bo'ldi. Mo'g'ullar hukmronligi davrida ko'plab boshqaruv an'analari yo'qolib ketgan yoki zaiflashgan edi. Sohirqiron esa ularni qayta tiklab, zamon talablariga mos ravishda rivojlantirdi. Uning davlat boshqaruvidagi asosiy maqsadi markazlashgan kuchli davlat yaratish edi. Shu sababli u mahalliy hokimlarning mustaqilligini cheklab, barcha hududlarni yagona markazga bo'ysundirdi. Bu o'z davri uchun nihoyatda ilg'or siyosiy tizim hisoblangan Amir Temur iqtisodiy siyosatda ham katta islohotlar amalga oshirdi. Dehqonchilik, hunarmandchilik va savdo-sotiq rivojiga alohida e'tibor qaratildi. Karvon yo'llari tiklandi, ko'priklar, karvonsaroylar va bozorlar qurildi. Natijada Samarqand va Hirot kabi shaharlar dunyoning yirik iqtisodiy va madaniy markazlariga aylandi. Fan va madaniyat rivojiga ham davlat siyosati darajasida e'tibor berildi. Keyinchalik Temuriylar davrida Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy va Kamoliddin Behzod kabi buyuk allomalar yetishib chiqdi.

Ayrim tarixiy manbalarda Amir Temurni mo'g'ullar bilan bog'lashga urinishlar mavjud. Biroq bu asosan siyosiy afsona va rivoyatlarga asoslangan. Tarixiy haqiqat shundaki, Amir Temur o'zbek davlatchiligini tiklagan, uni markazlashgan qudratli davlat darajasiga olib chiqqan buyuk davlat arbobi sifatida tarixda qolgan.

"Temur tuzuklari"da davlatni boshqarish tamoyillari aniq va tizimli shaklda bayon etilgan. Unda hokimiyatning mutlaq bir shaxs qo'lida bo'lishi, davlat ishlariga boshqa shaxslarning aralashmasligi, barcha farmonlarning so'zsiz bajarilishi zarurligi ta'kidlanadi. Bu qarashlar o'sha davr siyosiy sharoitida kuchli va markazlashgan davlatni saqlab qolish uchun xizmat qilgan. Temur tuzuklari asarida davlat boshqaruvi, mansablar tizimi, qo'shin tuzilishi, soliq va moliya siyosati, ijtimoiy tabaqalar bilan munosabatlar kabi masalalar batafsil yoritilgan. Bu asar nafaqat huquqiy va siyosiy qo'llanma, balki davlatni boshqarish falsafasini ham ifodalaydi. Unda adolat, xalq manfaatini himoya qilish va qonunga qat'iy amal qilish asosiy tamoyillar sifatida ko'rsatilgan. Tadqiqotchilar fikriga ko'ra, Amir Temur davrida O'rta Osiyoda ilk bor tizimli davlat boshqaruvi modeli shakllangan. U Yevropa davlatlarida konstitutsiya tushunchasi hali mavjud bo'lmagan bir davrda, o'zining "Tuzuklar"i orqali aniq boshqaruv qoidalarini joriy etgan. Bu holat uning davlat boshqaruvi tarixidagi o'rnini yanada yuksaltiradi. Amir Temur davlatni boshqarishda tarixiy tajribadan keng foydalangan. U qadimgi Sharq va o'rta asr davlatlarining boshqaruv tizimlarini chuqur o'rganib, ularni mahalliy an'alar bilan uyg'unlashtirgan. Xususan, u Nizomulmulkning "Siyosatnoma" asaridan ham ilhomlanib, davlat boshqaruvida undan amaliy qo'llanma sifatida foydalangan.

Amir Temur davlatini harbiy-siyosiy asosga ega kuchli imperiya sifatida shakllantirdi. U Movarounnahrda yagona markazlashgan boshqaruvni joriy etib, viloyatlar ustidan qat'iy nazorat o'rnatdi. Shu bilan birga, mahalliy boshqaruv tizimlari ham ma'lum darajada saqlab qolindi, bu esa boshqaruvning moslashuvchanligini ta'minladi.

Amir Temur davrida davlat boshqaruvi ikki asosiy tizim — dargoh va devonlarga bo'lingan edi. Dargoh oliy hokimiyat markazi bo'lib, davlat siyosati shu yerda shakllangan. Devonlar esa turli sohalar — moliya, harbiy ishlar, soliq va tashqi siyosatni boshqargan. Shu tariqa Amir Temur yaratgan boshqaruv tizimi o'z davri uchun nihoyatda ilg'or bo'lib, u markazlashgan davlat, qat'iy tartib va adolat tamoyillariga asoslangan edi. Bu tizim keyingi Temuriylar davlatchiligi rivojiga ham kuchli ta'sir ko'rsatgan. Amir Temur va temuriylar davrida davlat boshqaruvi, huquqiy tizim va ijtimoiy tartiblar o'z davrining eng mukammal siyosiy tizimlaridan biri sifatida shakllandi. Bu davrda davlat tuzilmasi faqat siyosiy hokimiyat emas, balki jamiyat hayotining barcha sohalarini tartibga soluvchi murakkab va uyg'un tizim sifatida faoliyat yuritdi. Ayniqsa, huquqiy asoslarning shakllanishi davlat barqarorligini ta'minlashda muhim o'rin egalladi.

Temuriylar davlati doirasida islom dini, xususan sunniylik yo'nalishining hanafiylik mazhabi keng yoyildi va mustahkam qaror topdi. Bu mazhabning asosiy huquqiy manbalaridan biri sifatida Burhoniddin Marg'inoniyning mashhur "Hidoya" asari qabul qilindi. Hanafiylikning nisbatan moslashuvchanligi, mahalliy urf-odat va an'analarni hisobga olishi uning Markaziy Osiyo hududida keng tarqalishiga sabab bo'ldi. Natijada shariat qoidalari mahalliy huquqiy odatlar bilan uyg'unlashtirilib, yagona huquqiy tizim shaklida amalda qo'llanildi. Shu davrda islom huquqi qat'iy, o'zgarmas tizim sifatida emas, balki "Temur tuzuklari" kabi dunyoviy boshqaruv qoidalari bilan to'ldirilgan, amaliy hayot talablariga moslashgan tizim sifatida faoliyat yuritdi. Bu esa davlat boshqaruvida diniy va dunyoviy huquqning o'zaro uyg'unlashuvini ta'minladi.

Umuman olganda, Temur va temuriylar davlati huquqiy tizimi diniy huquq (shariat), qadimiy urf-odatlar (to'ra) va dunyoviy boshqaruv qoidalarining uyg'unlashuvi natijasida shakllangan murakkab va mukammal tizim bo'lib, u Markaziy Osiyo davlatchiligi tarixida alohida o'rin egallaydi.


# TEMURIYLAR DAVRI

(1370–1507-yillar)

## DAVLAT ASOSCHISI

**Amir Temur**  
(1336–1405)

Amir Temur Movarounnahrda kuchli davlat barpo etdi. Uning maqsadi – mamlakatda tinchlik va adolatni o'rnatish, ilm-fan, madaniyat va savdoni rivojlantirish edi.



## DAVLATNING HUDUDI



Temuriylar davlati o'z davrining eng yirik davlatlaridan biri bo'lib, quyidagi hududlarni o'z ichiga olgan:

- Movarounnahr
- Xuroson
- Eron
- Iroq
- Ozarbayjon
- Anatoliya (qisman)
- Hindiston (qisman)

## DAVLATNING TASHKIL TOPISHI



1370-yilda Amir Temur Movarounnahrda mustaqil hokim sifatida e'tirof etildi.

1370–1405-yillar davomida ko'plab yurishlar amalga oshirilib, yirik davlat tashkil topdi.

1405-yilda Amir Temur vafot etdi.

## BOSH MAQSADLAR



Davlatni mustahkamlash va chegaralarni kengaytirish



Tinchlik, xavfsizlik va adolatni ta'minlash



Savdo-sotiq va iqtisodiyotni rivojlantirish



Ilm-fan, ta'lim, madaniyat va me'morchilikni qo'llab-quvvatlash

## BOSHQARUV TIZIMI



Mutlaq monarxiya – oliy hokimiyat Amir Temur va uning avlodlari qo'lida bo'lgan.



Viloyatlar, tumanlar hokimlar (beklar) tomonidan boshqarilgan.



Soliq tizimi tartibli bo'lgan: soliqlar adolatli yig'ilgan.



Qonunlar va qoidalar (Tuzuklar) asosida davlat boshqarilgan.

## IQTISODIY HAYOT



Qishloq xo'jaligi rivojlangan: g'alla, paxta, uzum, sabzavot yetishtirilgan.



Hunarmandchilik va savdo-sotiq yuksak darajada bo'lgan.



Buyuk Ipak yo'li xavfsizligi ta'minlanib, savdo rivojlandi.



Shaharlar, bozorlar va karvonsaroylar.

## MADANIYAT VA ILM-FAN



Temuriylar davrida madaniyat va ilm-fan yuksak cho'qqiga ko'tarildi.



Mirzo Ulug'bek (astronom)



Alisher Navoiy (shoir va mutafakkir)



Abdurazzoq (Samarqandiy tarixchi)

## ME'MORCHILIK YUTUQLARI



Samarqanddagi Registon maydoni ansambli



Bibi-Xonim masjidi (Samarqand)



Shohi Zinda majmuasi (Samarqand)



Gur Amir maqbarasi (Samarqand)

## TEMURIYLAR DAVRI ASOSIY BOSQICHLARI

1336–1370

Amir Temurning yoshlik yillari, siyosiy faolligi boshlanishi.



1370–1380

Mustaqil hokim sifatida e'tirof etilishi va davlat poydevorining mustahkamlanishi.



1380–1400

Yirik harbiy yurishlar: Eron, Iroq, Kavkaz, Oltin O'rda, Hindiston va boshqalar.



1400–1405

Davlatning eng yuksak cho'gi. Tinchlik, obodlik va madaniyatning rivojlanishi.



1405

Amir Temurning vafoti.



1405–1507

Temuriylar avlodlari hukmronligi: Shohruh, Ulug'bek, Husayn Boyqaro va boshqalar.



## TEMURIYLAR DAVRI MEROSI



- ✓ Kuchli va markazlashgan davlat barpo etildi.
- ✓ Ilm-fan, madaniyat va san'at yuksak darajada rivojlandi.
- ✓ Me'morchilikda betakror yodgorliklar yaratildi.
- ✓ Buyuk mutafakkir va olimlar yetishib chiqdi.

## TEMURIYLAR DAVRI YIRIK HUKMDORLARI



**Amir Temur**  
(1370–1405)  
Davlat asoschisi, sarkarda va davlat arbobi.



**Shohruh Mirzo**  
(1405–1447)  
Davlatni mustahkamladi, ilm-fan va madaniyatni rivojlantirdi.



**Mirzo Ulug'bek**  
(1447–1449)  
Buyuk astronom va olim, rasadxona qurdirgan.



**Husayn Boyqaro**  
(1469–1506)  
Adabiyot va san'atni qo'llab-quvvatlagan, so'nggi yirik hukmdor.

*“Kuch adolatda, adolat esa ilm va ma'rifatda.”*

– Amir Temur



## **O‘rta Osiyoda tashkil topgan xonliklar va davlatlar**

XVI–XIX asrlarda O‘rta Osiyo hududida bir necha yirik davlatlar va xonliklar mavjud bo‘lgan. Temuriylar davlati inqirozga uchragach, bu hududda siyosiy parokandalik kuchaydi va natijada mustaqil xonliklar shakllandi. O‘rta Osiyodagi eng yirik davlatlardan Buxoro amirligi, Xiva xonligi va Qo‘qon xonligi alohida o‘rin tutadi. Bu davlatlar siyosiy, iqtisodiy va madaniy jihatdan O‘rta Osiyo tarixida muhim rol o‘ynagan.

### **Buxoro xonligi.**

Buxoro amirligi 1756-yil 12-dekabrda tashkil topgan bo‘lib, 1920-yil 2-sentyabrgacha mavjud bo‘lgan. Bu davlatda hokimiyat avval hukmronlik qilgan ashtarxoniyalar sulolasi o‘rniga mang‘itlar sulolasi qo‘liga o‘tdi. Mang‘it hukmdorlari o‘zlarini “amir” deb ataganliklari sababli davlat tarixda “Buxoro amirligi” nomi bilan mashhur bo‘ldi. Amirlik 1920-yilda sovet qo‘shinlari tomonidan amalga oshirilgan Buxoro bosqini natijasida tugatildi.

Mang‘itlar sulolasining hokimiyat tepasiga kelishi XVIII asr o‘rtalarida yuz berdi. 1758-yilda Rahimbiy vafotidan so‘ng mang‘it amaldorlari taxtga uning amakisi, Miyonko‘l hokimi Doniyolbiyning nomzod qilib ko‘rsatdilar. U 1758–1785-yillarda hukmronlik qildi. Biroq Doniyolbiy markaziy hokimiyatni mustahkam saqlab qola olmadi. Natijada davlat ichida mang‘itlarning tarafdorlari va raqiblari o‘rtasida uzoq davom etgan kurashlar boshlandi. Viloyat hokimlari ham mustaqil bo‘lishga intildilar, bu esa siyosiy beqarorlikni kuchaytirdi.

1784-yilda Buxoro aholisi Doniyolbiyning sust boshqaruvidan norozi bo‘lib qo‘zg‘olon ko‘tardi. Shundan so‘ng hokimiyat uning o‘g‘li Shohmurodga topshirildi. Shohmurod 1785–1800-yillarda hukmronlik qilib, davlatni markazlashtirish va tartibni tiklashga harakat qildi. U adolatli hukmdor sifatida tanilgan bo‘lib, soliqlarni kamaytirish, tartib-intizomni mustahkamlash va davlat boshqaruvini yaxshilashga katta e‘tibor qaratgan.

Davlat boshqaruvi tizimi. Buxoro amirligida mutlaq monarxiya shaklida bo‘lib, barcha siyosiy, harbiy va diniy hokimiyat amir qo‘lida jamlangan edi. Amir davlatning eng oliy hukmdori sifatida qonunlar chiqarish, soliq tizimini belgilash va harbiy kuchlarni boshqarish huquqiga ega bo‘lgan. Amirga yaqin yirik amaldorlar — qushbegi (bosh vazir), devonbegi (moliyaviy ishlar boshlig‘i) va qozikalon (shariat sudyasi) davlat boshqaruvida muhim rol o‘ynagan. Viloyatlarda esa beklar hukmronlik qilib, markaziy hokimiyat qarorlarini amalga oshirgan.

Ijtimoiy hayot qat‘iy tabaqaviy tizimga asoslangan edi. Jamiyatning yuqori qatlamini amir va uning oilasi, saroy amaldorlari, yirik yer egalari va ruhoniylar tashkil etgan. O‘rta qatlamda hunarmandlar, savdogarlar va kichik yer egalari joylashgan bo‘lib, ular shahar iqtisodiyotining asosiy harakatlantiruvchi kuchi hisoblangan. Aholining eng katta qismini esa dehqonlar tashkil etgan bo‘lib, ular yerda ishlash bilan birga davlatga turli soliqlar (xiroj, zakot va boshqalar) to‘lagan.

Buxoro amirligi iqtisodiy jihatdan dehqonchilik, chorvachilik va hunarmandchilikka asoslangan edi. Ayniqsa, Buxoro shahri Buyuk ipak yo‘lidagi yirik savdo markazlaridan biri bo‘lib, unda ko‘plab madrasalar, masjidlar va bozorlarga ega bo‘lgan. Shaharlar ijtimoiy va madaniy hayot markazi sifatida

rivojlanib, savdo-sotiq va ilm-fan taraqqiyotiga katta hissa qo'shgan. Amirlikda islom dini va shariat qonunlari davlat boshqaruvi va ijtimoiy tartibning asosiy poydevorini tashkil etgan.

### **Xiva xonligi**

Xiva xonligi O'rta Osiyodagi qadimgi va yirik davlatlardan biri bo'lib, 1512–1920-yillar oralig'ida mavjud bo'lgan. Bu xonlik Xorazm hududida tashkil topgan bo'lib, dastlab poytaxt Vazir shahri bo'lgan. Keyinchalik Ko'hna Urganch, XVI asrning 70-yillaridan boshlab esa Xiva shahri davlat poytaxtiga aylangan.

Xorazm hududi dastlab Temuriylar tasarrufida bo'lgan. 1505-yilda Muhammad Shayboniyxon Xorazmni bosib oldi. Biroq Shayboniyxon 1510-yilda vafot etgach, Xorazm hududi Eron safaviylari qo'lga o'tdi. Safaviylar hukmronligiga qarshi xalq qo'zg'olonlari boshlandi. Bu kurashlarga Vazir qal'asi qozisi Umar hamda Baqirg'onlik mulla Sayid Hisomiddin boshchilik qilgan.

Ikki yil davom etgan kurashlar natijasida safaviylar Xorazmdan quvib chiqarildi. Xorazm aholisi taklifiga binoan 1511-yilda shayboniylardan Elbarsxon Xorazm hukmdori deb e'lon qilindi. Shu tariqa Xiva xonligiga asos solindi.

Davlat boshqaruvi tizimi Xiva xonligida mutlaq monarxiyaga asoslangan bo'lib, barcha siyosiy va harbiy hokimiyat xon qo'lida jamlangan edi. Xon davlatning eng oliy hukmdori sifatida qonunlar chiqarish, yer taqsimoti va soliqlarni belgilash huquqiga ega bo'lgan. Davlat boshqaruvida xonga yaqin amaldorlar — inoq, devonbegi, qo'shbegi va mehtarlar muhim rol o'ynagan. Viloyat va tumanlarda esa beklar va hokimlar markaziy hokimiyat siyosatini amalga oshirgan. Qozilar esa shariat qonunlari asosida sud ishlarini yuritib, jamiyatdagi huquqiy tartibni ta'minlagan.

Ijtimoiy hayot qat'iy tabaqaviy tizimga asoslangan edi. Jamiyatning yuqori qatlamini xon oilasi, saroy amaldorlari, harbiylar va yirik yer egalari tashkil etgan. O'rta qatlamda savdogarlar va hunarmandlar bo'lib, ular shahar iqtisodiy hayotining muhim qismini tashkil qilgan. Aholining asosiy qismini dehqonlar tashkil etgan bo'lib, ular sug'orma dehqonchilik bilan shug'ullangan va davlatga turli soliqlar to'lagan.

Xiva xonligi iqtisodiyotida sug'orma dehqonchilik muhim o'rin tutgan. Amudaryo suvidan foydalanib, paxta, g'alla va poliz mahsulotlari yetishtirilgan. Hunarmandchilik ham rivojlangan bo'lib, gilamdo'zlik, kulolchilik, temirchilik va yog'och o'ymakorligi keng taraqqiy etgan. Xiva shahri esa me'moriy obidalari, madrasalari va qal'alari bilan mashhur bo'lib, u nafaqat siyosiy, balki madaniy va diniy markaz sifatida ham rivojlangan. Shaharda ilm-fan, ta'lim va savdo-sotiq faol rivojlangan bo'lib, u Buyuk ipak yo'li tizimidagi muhim markazlardan biri hisoblangan.

### **Qo'qon xonligi**

Qo'qon xonligi XVIII–XIX asrlarda mavjud bo'lgan yirik o'zbek davlatlaridan biri bo'lib, u Farg'ona vodiysi markazida shakllangan. Xonlikka 1709-yilda o'zbeklarning ming urug'idan chiqqan Shohruxbiy asos solgan. Uning tashkil topishi o'sha davrdagi siyosiy parokandalik va Buxoro amirligining markaziy hokimiyati zaiflashgan davrga to'g'ri keladi.

Dastlab Qo‘qon xonligi hududi nisbatan kichik bo‘lib, Qo‘qon, Namangan, Marg‘ilon, Konibodom, Isfara va ularning atrofidagi qishloqlardan iborat edi. Keyinchalik xonlik asta-sekin kuchayib, harbiy yurishlar va siyosiy ittifoqlar orqali Farg‘ona vodiysining katta qismini, shuningdek Sirdaryo bo‘ylaridagi ayrim hududlarni ham o‘z tarkibiga qo‘shib oldi. Xonlikning poytaxti Qo‘qon shahri tez orada siyosiy, iqtisodiy va madaniy markazga aylandi. Shaharning geografik joylashuvi — Buyuk ipak yo‘li yo‘nalishlariga yaqinligi — uning savdo-sotiq markazi sifatida rivojlanishiga katta ta‘sir ko‘rsatdi.

Qo‘qon xonligi aholisi soni XIX asr boshlarida taxminan 3 millionga yaqin bo‘lgan. Rossiya imperiyasining O‘rta Osiyoga yurishlari natijasida xonlikning shimoliy va g‘arbiy hududlari bosib olindi, bu esa uning hududiy va iqtisodiy imkoniyatlarini keskin kamaytirdi. Natijada aholi soni ham qisqarib, asosan Farg‘ona vodiysi hududida to‘planib qoldi.

Xonlik aholisining asosiy qismini o‘zbeklar tashkil etgan bo‘lsa-da, bu hudud ko‘p millatli jamiyat hisoblangan. Bu yerda tojiklar, qirg‘izlar, qashqarlik uyg‘urlar va boshqa etnik guruhlar ham yashagan. Aholining turmush tarzi o‘troq dehqonlar, yarim ko‘chmanchi chorvadorlar va to‘liq ko‘chmanchi qabilalarga bo‘lingan. Bu xilma-xillik xonlikning iqtisodiy va madaniy hayotiga o‘ziga xos rang-baranglik bergan.

Davlat boshqaruvi tizimi. Qo‘qon xonligi mutlaq monarxiya asosida boshqarilgan bo‘lib, barcha siyosiy, harbiy va moliyaviy hokimiyat xon qo‘lida jamlangan edi. Xon davlatning oliy hukmdori sifatida qonun chiqarish, soliqlarni belgilash, harbiy yurishlarni boshlash va tinchlik shartnomalarini tuzish huquqiga ega bo‘lgan. Davlat boshqaruvida bir qator yirik amaldorlar muhim o‘rin tutgan. Jumladan, mingboshi (harbiy kuchlar rahbari), qushbegi (bosh ma‘muriy amaldor), devonbegi (moliyaviy va davlat hujjatlari boshlig‘i), qozi kalon (shariat asosidagi sud ishlari rahbari) va boshqa mansabdorlar davlat ishlarini yuritgan. Viloyat va shaharlar esa beklar tomonidan boshqarilib, ular markaziy hokimiyat qarorlarini hududlarda amalga oshirgan.

Ijtimoiy tuzilma va hayot. Qo‘qon xonligida jamiyat qat‘iy tabaqalarga bo‘lingan edi. Eng yuqori qatlamni xon oilasi, saroy amaldorlari, harbiy zodagonlar va yirik yer egalari tashkil etgan. Ular siyosiy va iqtisodiy hokimiyatni o‘z qo‘llarida ushlab turgan. O‘rta qatlamga savdogarlar, hunarmandlar va kichik yer egalari kirgan. Ayniqsa, Qo‘qon, Marg‘ilon va Namangan kabi shaharlar hunarmandchilik markazlari bo‘lib, bu yerda ipak matolar, gilamlar, kulolchilik buyumlari va metall mahsulotlar ishlab chiqarilgan. Aholining eng katta qismini dehqonlar tashkil etgan bo‘lib, ular sug‘orma dehqonchilik bilan shug‘ullangan. Dehqonlar davlatga xiroj, zakot va boshqa soliqlar to‘lashga majbur bo‘lgan. Qishloq hayoti asosan yerga bog‘liq bo‘lib, suv resurslari va yer taqsimoti muhim ahamiyatga ega edi. Shuningdek, xonlik hududida ko‘chmanchi va yarim ko‘chmanchi qabilalar ham yashab, ular asosan chorvachilik bilan shug‘ullangan. Ularning harakatlanishi va turmush tarzi xonlikning chegara hududlarida muhim iqtisodiy va harbiy ahamiyatga ega bo‘lgan.

Qo‘qon xonligi iqtisodiy jihatdan dehqonchilik, chorvachilik va hunarmandchilikka tayangan edi. Farg‘ona vodiysining unumdor yerlari paxtachilik,

g'allachilik va ayniqsa ipakchilikning rivojlanishiga katta imkon yaratgan. Ipak mahsulotlari nafaqat ichki bozor, balki tashqi savdoda ham katta ahamiyatga ega bo'lgan.

Savdo-sotiq xonlik iqtisodiyotining muhim tarmog'i bo'lib, Qo'qon shahri Markaziy Osiyoning yirik savdo markazlaridan biriga aylangan. Bu yerda Rossiya, Xitoy va boshqa hududlar bilan savdo aloqalari yo'lga qo'yilgan.

O'RTA OSIYO XONLIKLARI TAQQOSLASHI					
	BUXORO AMIRLIGI	XIVA XONLIGI	QO'QON XONLIGI		
	Tashkil topishi	1756-yil (12-dekabr)	1512-yil		1709-yil
	Tugatilishi	1920-yil (2-sentyabr, Buxoro bosqini, Sovet hokimiyati)	1920-yil (2-fevral, Sovet bosqini)		1876-yil (Rossiya imperiyasi tomonidan tugatilgan)
	Poytaxti	Buxoro shahri	Dastlab Vazir, keyin Ko'hna Urganch, XVI asrning 70-yillaridan boshlab Xiva		Qo'qon shahri
	Sulola	Mang'itlar sulolasi	Shayboniyar sulolasi (Elbarsxon asos solgan)		Minglar sulolasi (Shohruxbiy asos solgan)
	Davlat tuzumi	Mutlaq monarxiya (amir hokimiyati)	Mutlaq monarxiya (xon hokimiyati)		Mutlaq monarxiya (xon hokimiyati)
	Boshqaruv tizimi	Qushbegi, devonbegi, qozikalon va boshqa amaldorlar	Inoq, devonbegi, qo'shbegi, mehtarlar va boshqa amaldorlar		Mingboshi, qushbegi, devonbegi, qozi kalon va boshqa amaldorlar
	Asosiy aholisi	O'zbeklar, tojiklar va boshqa xalqlar	O'zbeklar, turkmanlar, qoraqalpoqlar, tojiklar va boshqa xalqlar		O'zbeklar, tojiklar, qirg'izlar, qashqarlik uyg'ur'lar va boshqa xalqlar
	Iqtisodiyot	Dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik, savdo	Sug'orma dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik, savdo		Dehqonchilik, bog'dorchilik, hunarmandchilik, savdo
	Asosiy mahsulotlar	G'alla, paxta, meva-sabzavot, hunarmandchilik buyumlari	Paxta, g'alla, poliz mahsulotlari, chorvachilik mahsulotlari		Paxta, ipak, meva-sabzavot, hunarmandchilik mahsulotlari
	Savdo markazlari	Buxoro shahri	Xiva shahri		Qo'qon shahri (Marg'ilon, Namangan ham)
	Ijtimoiy tuzilma	Amir va zodagonlar, amaldorlar, ruhoniylar, hunarmandlar, dehqonlar	Xon va amaldorlar, beklar, hunarmandlar, dehqonlar, chorvadorlar		Xon va amaldorlar, beklar, savdogarlar, hunarmandlar, dehqonlar, chorvadorlar
	Din roli	Islom va shariat juda kuchli	Islom va shariat asosiy qonun		Islom va shariat asosiy qonun
	Rossiya ta'siri	1868-yildan boshlab Rossiya ta'sirida (1895-yildan to'liq qaram)	1873-yildan boshlab Rossiya ta'sirida (1913-yildan to'liq qaram)		XIX asr o'rtalaridan boshlab Rossiya bosimi 1876-yilda xonlik to'liq tugatildi
	Xususiy jihat	Nisbatan mustahkam markaziy hokimiyat, diniy markaz sifatida mashhur	Geografik jihatdan cho'l bilan o'ralgan, ko'hna me'morchilik obidalari mashhur		Farg'ona vodiysining eng yirik va eng tez rivojlangan xonligi, savdo-sotiq markazi

<p><b>XULOSA</b></p> <p>Bu uch xonlik O'rta Osiyo tarixida muhim rol o'ynagan. Ular iqtisodiy, madaniy va siyosiy jihatdan bir-biridan farqlansa-da, islom dini va an'anaviy boshqaruv tizimi ularni birlashtirgan.</p>		<p><b>MADANIY HAYOT</b></p> <p>Madrasalar, masjidlar, ilm-fan, adabiyot va me'morchilik rivojlangan. Islom dini jamiyatda yetakchi rol o'ynagan.</p>	<p><b>SAVDO-SOTIQ</b></p> <p>Uch xonlik ham Buyuk ipak yo'li orqali Sharq va G'arb o'rtasidagi savdoda muhim o'rin tutgan.</p>	<p><b>TARIXIY AHAMIYAT</b></p> <p>Bu davlatlar mustaqillik, iqtisodiy taraqqiyot va madaniy yuksalish davrlarini boshdan kechirgan, ammo mustamlakachilik davrida o'z mustaqilligini yo'qotgan.</p>
---	--	--	--	---

Madaniy hayot ham ancha rivojlangan bo'lib, madrasalar, masjidlar va ilmiy markazlar faoliyat yuritgan. Diniy bilimlar, adabiyot va tarixiy asarlar yaratilgan. Qo'qon xonligi madaniy jihatdan Farg'ona vodiysining markaziy o'chog'iga aylangan.

Xonlikning tugatilishi. XIX asrning ikkinchi yarmida Rossiya imperiyasining mustamlakachilik siyosati kuchayishi natijasida Qo'qon xonligi asta-sekin o'z hududlarini yo'qota boshladi. Harbiy jihatdan zaiflashgan xonlik Rossiya qo'shinlariga qarshi to'liq qarshilik ko'rsata olmadi.

Natijada Qo'qon xonligi tugatildi. Buxoro amirligi va Xiva xonligi esa Rossiya imperiyasiga qaram davlatlarga aylantirildi. Bu voqea O'rta Osiyo tarixida muhim burilish nuqtasi bo'lib, mintaqada mustamlakachilik davrining boshlanishiga olib keldi.

XVIII–XIX asrlarda Markaziy Osiyoda mavjud bo'lgan Buxoro amirligi, Xiva xonligi va Qo'qon xonligi o'z davrining yirik siyosiy tuzilmalari hisoblangan. Bu davlatlar o'zbek davlatchiligi tarixida muhim o'rin tutib, iqtisodiy, madaniy va ma'naviy hayotning rivojlanishida katta rol o'ynagan. Xonliklarda dehqonchilik, hunarmandchilik va savdo rivojlangan, shaharlar ilm-fan va madaniyat markazlariga aylangan edi. Buxoro, Xiva, Qo'qon, Samarqand, Toshkent kabi shaharlarda madrasalar, masjidlar, karvonsaroylar va bozorlardan iborat yirik infratuzilmalar mavjud bo'lgan. Biroq vaqt o'tishi bilan xonliklarning ichki va tashqi siyosatidagi muammolar ularning asta-sekin zaiflashuviga va tanazzulga yuz tutishiga olib keldi. O'zbek xonliklari tanazzulining eng asosiy sabablaridan biri ichki siyosiy beqarorlik edi. Xonliklarda markaziy hokimiyat mustahkam emasdi. Ko'pincha hukmdorlar almashinuvi taxt uchun qonli kurashlar orqali amalga oshar edi. Amirlar, beklar, qabila boshliqlari va boshqa amaldorlar o'rtasida hokimiyat uchun kurash kuchli bo'lib, bu davlat boshqaruvining izdan chiqishiga sabab bo'ldi. Ayrim hollarda hukmdorlar o'z qarindoshlari yoki harbiy qo'mondonlari tomonidan ag'darilgan. Taxt uchun kurashlar natijasida mamlakat ichida tartibsizlik va ishonchsizlik kuchaydi. Oddiy xalq esa bu nizolardan eng ko'p zarar ko'rgan qatlamga aylandi.

Urug'-qabilachilik munosabatlarining kuchliligi ham xonliklar taraqqiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Har bir qabila yoki urug' davlat boshqaruvida o'z mavqeini mustahkamlashga harakat qilgan. Natijada umumdavlat manfaatlari ikkinchi o'ringa tushib qolgan. Ayniqsa, Buxoro amirligida mang'itlar, Qo'qon xonligida minglar sulolasi, boshqa hududlarda esa mahalliy qabila boshliqlarining ta'siri kuchli edi. Bu esa markaziy hokimiyatni zaiflashtirib, hududlar o'rtasida bo'linish kayfiyatini kuchaytirgan.

Xonliklar o'rtasidagi o'zaro urushlar ham tanazzulning muhim sabablaridan biri bo'ldi. Buxoro, Xiva va Qo'qon xonliklari ko'pincha chegara hududlari, savdo yo'llari va strategik shaharlar uchun bir-biri bilan kurash olib bordi. Ayniqsa, Toshkent, Jizzax, O'ratepa kabi hududlar uchun bo'lgan urushlar uzoq davom etgan. Bu urushlar iqtisodiyotni izdan chiqardi, ko'plab qishloq va shaharlarning vayron bo'lishiga olib keldi. Dehqonchilik yerlari qarovsiz qoldi, savdo yo'llari xavfli bo'lib qoldi. Eng muhimi, xonliklar tashqi xavfga qarshi birlashish o'rniga o'zaro nizolar bilan band bo'lib qolgan edi.

Iqtisodiy sohada ham jiddiy muammolar yuzaga kelgan edi. Xonliklar iqtisodiyoti asosan sug'orma dehqonchilikka tayangan. Paxta, bug'doy, sholi va meva yetishtirish rivojlangan bo'lsa-da, ishlab chiqarish eski usullarda olib borilgan. Yangi texnologiyalar va zamonaviy ishlab chiqarish vositalari deyarli qo'llanilmagan. Sug'orish tizimlari yaxshi rivojlangan bo'lsa ham, ularni yangilash va saqlash ishlari sust olib borilgan. Ayrim hududlarda suv taqchilligi yuzaga kelgan. Hunarmandchilik rivojlangan bo'lsa-da, u asosan qo'l mehnatiga asoslangan edi.

Savdo-sotiq ham avvalgidek rivojlanmay qoldi. Buyuk ipak yo'lining ahamiyati kamayib, dengiz savdo yo'llari rivojlanishi natijasida Markaziy Osiyo xalqaro savdodan chetda qola boshladi. Bu esa xonliklar iqtisodiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Ichki bozorlarda narx-navoning oshishi, soliqlarning ko'payishi xalqning turmush darajasini pasaytirdi. Xonlar va amaldorlar davlat xarajatlarini qoplash uchun aholiga turli soliqlar yuklagan. Soliqlarning ko'pligi dehqon va hunarmandlarning ahvolini yanada og'irlashtirdi.

XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib Rossiya imperiyasi Markaziy Osiyoni bosib olish siyosatini faol ravishda amalga oshira boshladi. Rossiya uchun bu hudud strategik va iqtisodiy jihatdan muhim edi. Rossiya bosqini natijasida xonliklarning mustaqilligi tugadi. Markaziy Osiyo Rossiya imperiyasining mustamlakasiga aylandi. Mahalliy boshqaruv tizimi Rossiya manfaatlariga mos ravishda qayta tashkil etildi. Yangi ma'muriy boshqaruv tizimi joriy qilinib, iqtisodiyot Rossiya sanoati ehtiyojlariga xizmat qila boshladi. Ayniqsa, paxta yetishtirish kengaytirildi. Bu esa mintaqaning iqtisodiy jihatdan bir tomonlama rivojlanishiga sabab bo'ldi.

Shunga qaramay, xonliklar tanazzuli davri milliy uyg'onish harakatlariga ham turtki berdi. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida jadidchilik harakati yuzaga keldi. Jadidlar xalqni ilm-ma'rifatga chaqirib, yangi usul maktablarini ochdi. Ular jamiyatni isloh qilish, milliy ongini uyg'otish va taraqqiyotga erishish g'oyalarini ilgari surdilar. Bu harakat keyinchalik milliy ozodlik kurashlari va mustaqillik g'oyalarining shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatdi.

## NAZORAT SAVOLLARI


1. O'zbek davlatchiligi tarixining ilk bosqichlari qaysi davlatlar bilan bog'liq?
2. Qang' va Kushon davlatlarining Markaziy Osiyo tarixidagi o'rnini nimadan iborat?
3. Eftalitlar davrida sug'orish tizimi va dehqonchilik qanday rivojlangan?
4. Turk hoqonligining boshqaruv tizimida hoqon, yabg'u va tegin qanday vazifalarni bajargan?
5. Somoniylar davlati o'zbek davlatchiligi tarixida qanday ahamiyatga ega bo'lgan?
6. Qoraxoniylar va Xorazmshohlar davrida davlat boshqaruvi qanday tashkil etilgan?

7. Amir Temurning markazlashgan davlat barpo etishdagi asosiy xizmatlari nimalardan iborat?
8. “Temur tuzuklari” asarida qanday davlat boshqaruvi tamoyillari ilgari surilgan?
9. Amir Temur davrida dargoh va devon tizimi qanday faoliyat yuritgan?
10. Temuriylar davrining “oltin asr” deb atalishining sabablari nimada?
11. Buxoro amirligida yer egaligining qanday shakllari mavjud bo‘lgan?
12. Buxoro amirligidagi asosiy soliq turlarini sanab bering.
13. Xiva xonligi va Qo‘qon xonligining tashkil topish jarayonlari haqida nimalarni bilasiz?
14. O‘rta Osiyo xonliklarida ijtimoiy tabaqalanish qanday shakllangan?
15. Mustaqil O‘zbekiston davlatchiligi tarixiy davlatchilik an‘analarining davomchisi sifatida qanday ahamiyat kasb etadi?

## **MAVZUNI O‘QITISHDA QO‘LLASH UCHUN INTERFAOL METODLAR.**


### **Keys study savollari?**

- ❖ Amir Temur davrida markazlashgan davlat boshqaruvi tizimini shakllantirishda qanday siyosiy va huquqiy omillar muhim rol o‘ynagan? Misollar asosida tahlil qiling.
- ❖ Buxoro amirligida yer egaligining amlok, mulk va vaqf shakllari jamiyatning iqtisodiy hamda ijtimoiy tuzilishiga qanday ta’sir ko‘rsatgan?
- ❖ Turk hoqonligi davridagi boshqaruv tizimi bilan Amir Temur davridagi boshqaruv tizimini solishtirib, ularning o‘xshash va farqli jihatlarini aniqlang.
- ❖ Eftalitlar davrida sug‘orish tizimining rivojlanishi O‘rta Osiyo iqtisodiy hayotiga qanday ta’sir qilgan? Ushbu jarayonning uzoq muddatli natijalarini baholang.
- ❖ Qo‘qon, Xiva va Buxoro davlatlarining ijtimoiy tuzumi va soliq siyosatini taqqoslab, qaysi omillar ularning siyosiy barqarorligi yoki zaiflashuviga sabab bo‘lganini izohlang.



Ushbu metodni guruh talabalarni kichik guruhlarga bo'lish yoki individual tarzda qo'llash mumkin.

Klaster usulidan foydalangan holda o'zbek xonliklari haqida o'ziga xos jihatlarini yoritish.



## INSERT jadvali metodini qo'llash

INSERT (“Interactive Noting System for Effective Reading and Thinking”) metodi o'quvchilarning matnni tahlil qilish, mustaqil fikrlash, avvalgi bilimlarini yangi ma'lumotlar bilan bog'lash hamda tanqidiy tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiladi.

V	+	-	?

### Belgi ma'nosi

- V Men bu ma'lumotni avval bilganman
- + Men uchun yangi ma'lumot
- Men o'ylaganimga zid ma'lumot
- ? Qo'shimcha izoh yoki o'rganish talab qiladigan ma'lumot

### O'qituvchi o'quvchilar bilan:

- yangi o'rganilgan ma'lumotlarni,
- tushunarsiz jihatlarni,
- tarixiy xulosalarni muhokama qiladi.
- savol-javob,
- kichik guruhlar bilan ishlash,
- taqdimot usullaridan foydalanish mumkin.

### Kutilayotgan natija:

#### O'quvchilar:

- O'zbek davlatchiligi bosqichlarini tahlil qila oladi;
- Amir Temur davri boshqaruv tizimini tushuntira oladi;
- Xonliklar davridagi ijtimoiy-siyosiy munosabatlarni solishtira oladi;
- Tarixiy manbalarni mustaqil o'rganish ko'nikmasiga ega bo'ladi.

**Mavzuni mustahkamlash uchun testlar:**

1. Amir Temur davlatining boshqaruv shakli qanday edi?

- A) Respublika
- B) Konstitutsion monarxiya
- C) Yakka hokimlikka asoslangan monarxiya
- D) Federativ davlat

2. Amir Temur davlat boshqaruvida qaysi asarga tayanib ish yuritgan?

- A) Qutadg‘u bilig
- B) Temur tuzuklari
- C) Boburnoma
- D) Devonu lug‘otit turk

3. “Temur tuzuklari” asarida asosiy e‘tibor nimaga qaratilgan?

- A) Faqat harbiy yurishlarga
- B) Savdo rivojiga
- C) Davlat boshqaruvi va qonunlarga
- D) Diniy marosimlarga

4. Amir Temur qaysi yilda Movarounnahr hukmdori deb e‘lon qilingan?

- A) 1365-yil
- B) 1370-yil
- C) 1380-yil
- D) 1405-yil

5. Amir Temur tomonidan mag‘lubiyatga uchratilgan Oltin O‘rda hukmdori kim edi?

- A) Boyazid
- B) Husayn
- C) To‘xtamish
- D) Elbarsxon

6. Amir Temur 1402-yilda qaysi jangda g‘alaba qozongan?

- A) Qunduzcha
- B) Panipat
- C) Ankara jangi
- D) Talas jangi

7. Temuriylar davri tarixda qanday nom bilan mashhur?

A) Qoraxoniylar davri

B) Oltin asr

C) Jadidlar davri

D) Uyg‘onishdan oldingi davr

8. Amir Temur davlatida markaziy boshqaruv organi nima deb atalgan?

- A) Devon
- B) Qurultoy
- C) Kengash
- D) Mahkama

9. Buxoro amirligi qachon tashkil topgan?

- A) 1512-yil
- B) 1709-yil
- C) 1756-yil
- D) 1785-yil

10. Buxoro amirligida hokimiyatni qaysi sulola boshqargan?

- A) Shayboniylar
- B) Minglar
- C) Mang‘itlar
- D) Qoraxoniylar

11. Xiva xonligining poytaxti qaysi shahar bo‘lgan?

- A) Samarqand
- B) Qo‘qon
- C) Toshkent
- D) Xiva

12. Qo‘qon xonligiga kim asos solgan?

- A) Shohmurod
- B) Shohruxbiy
- C) Doniyolbiy
- D) Muhammad Rahimxon

13. Qo‘qon xonligi qaysi hududda tashkil topgan edi?

- A) Xorazmda
- B) Farg‘ona vodiysida
- C) Zarafshon vohasida
- D) Toshkent vohasida

14. Turk hoqonligida davlat boshlig‘i qanday atalgan?

- A) Amir
- B) Podsho

- C) Hoqon  
D) Malik
15. Turk hoqonligida taxt vorisi qanday nomlangan?  
A) Yabg‘u  
B) Tegin  
C) Tudun  
D) Bek
16. Turk hoqonligida mahalliy hokimlarni nazorat qiluvchi mansabdor kim bo‘lgan?  
A) Tegin  
B) Yabg‘u  
C) Tudun  
D) Qozi
17. Eftalitlar davrida yirik sug‘orish inshootlaridan biri qaysi edi?  
A) Amu-Buxoro kanali  
B) Darg‘om kanali  
C) Katta Farg‘ona kanali  
D) Tuyamo‘yin kanali
18. Eftalitlar davrida sug‘orma yerlarning bir qismi nima deb atalgan?  
A) Suyurg‘ol  
B) Tanho  
C) Vag‘nze  
D) Mulki hur
19. Buxoro amirligidagi asosiy yer solig‘i nima edi?  
A) Zakot  
B) Tanob puli  
C) Xiroj  
D) Suv haqi
20. Zakot qanday soliq turi hisoblangan?  
A) Yer solig‘i  
B) Davlat solig‘i  
C) Savdo solig‘i  
D) Hunarmandlar solig‘i
21. “Mulki hurri xolis” nimani anglatadi?  
A) Davlat yeri  
B) Vaqf yeri  
C) Xususiy mulk  
D) Jamoa yeri
22. Buxoro amirligida diniy tabaqa vakillari kimlar edi?  
A) Kadivarlar  
B) Mullalar  
C) Sipohiyalar  
D) Chorikorlar
23. Temuriylar davrida qaysi mazhab asosiy o‘rinda bo‘lgan?  
A) Shofe‘iylik  
B) Hanbaliylik  
C) Hanafiylik  
D) Molikiylik
24. “Hidoya” asari muallifi kim?  
A) Ahmad Yassaviy  
B) Burhoniddin Marg‘inoniy  
C) Imom Buxoriy  
D) Zamaxshariy
25. Amir Temur davlatida huquqning asosiy manbalaridan biri nima bo‘lgan?  
A) Boburnoma  
B) Yasoq va Temur tuzuklari  
C) Avesto  
D) Qobusnoma
26. “Budun” atamasi nimani anglatgan?  
A) Harbiylar  
B) Beklar  
C) Oddiy xalq  
D) Ruhoniylar
27. Turk hoqonligida “beklar” kimlar bo‘lgan?  
A) Hunarmandlar  
B) Qabila zodagonlari  
C) Ruhoniylar  
D) Savdogarlar
28. Amir Temur davlatida boshqaruv nechta asosga tayangan?  
A) 5 ta  
B) 7 ta  
C) 8 ta  
D) 9 ta
29. Amir Temurning Xitoyga yurishi nima sababdan amalga oshmay qolgan?  
A) Qo‘zg‘olon sababli

- B) Qo‘shin yetishmasligi sababli
- C) Amir Temurning vafoti sababli
- D) Iqlim sharoiti sababli

30. Buxoro amirligida yersiz dehqonlar qanday ahvolda yashagan?

- A) Mustaqil savdogar bo‘lib
- B) Yer egalari qo‘lida yollanib ishlagan
- C) Davlat xizmatida bo‘lgan
- D) Hunarmandchilik bilan shug‘ullangan

## **MAVZU:ROSSIYA IMPERIYASI VA SOVET XUKUMRONLIGI DAVRIDA O‘LKADAGI IJTIMOIIY IQTISODIY, SIYOSIY VA MA’NAVIY JARAYONLAR.**

### **Darsning maqsadi**

Ushbu darsning asosiy maqsadi o‘quvchilarga Rossiya imperiyasi va sovet hukmronligi davrida Turkiston, jumladan O‘zbekiston hududida yuz bergan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hamda ma’naviy jarayonlar haqida chuqur bilim berishdan iborat. Dars davomida o‘quvchilar mustamlakachilik siyosatining mohiyatini, uning xalq hayotiga ta’sirini, sovet davridagi siyosiy boshqaruv tizimini hamda jadidchilik harakatining milliy uyg‘onishdagi o‘rmini o‘rganadilar.

### **Mavzuning ahamiyati**

